

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani
_____ E.R.Yuzlikayeva
« ____ » _____ 2014 yil

5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta’lim yo‘nalishi 401-guruh
talabasi

Abdiyev Oybek Nazrullaevichning
«Jizzax viloyatining turistik rekratsion salohiyatidan foydalanish
muammolari va istiqbollari» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya va uni
o‘qitish
metodikasi» kafedrasi o‘qituvchisi
_____ Sh. A. Xolmurodov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya va uni
o‘qitish metodikasi» kafedrasi mudiri g.f.n
_____ N.R.Alimqulov

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Geografiya va uni o‘qitish
metodikasi» kafedrasi mudiri
_____ g.f.n. dots. N.R.Alimqulov
« ____ » _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I Bob. Jizzax viloyatning tabiiy geografik xususiyatlari va tabiiy resurslari.....	7
1.1. Viloyatning geografik o'рни va tabiiy sharoiti.....	7
1.2. Geologik tuzilishi va rel'efning asosiy xususiyatlari.....	10
1.3. Iqlimi va ichki suvlari.....	12
1.4. Tuproq va organik dunyosi.....	14
II bob. Jizzax viloyatida turizmni tashkil etish imkoniyatlari va muammolari.....	28
2.1. Viloyatda turizmni tashkil etish imkoniyatlari va uning respublikamizda tutgan o'рни.....	28
2.2. Viloyatda turizmning mohiyati va uni rivojlantirish muammolari.....	30
2.3. Viloyatda turizmni tashkil etishda turistlar xavfsizligini ta'minlash.....	36
III bob. Viloyatning turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanish istiqbollari.....	44
3.1. Viloyatning madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari.....	44
3.2. Viloyatning rekreatsiya-ekoturistik resurslari va ulardan samarali foydalanish.....	56
3.3. Viloyatda turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	61
Xulosa.....	71
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Turizm millatlarni bir–biriga yaqinlashtiradigan, turli davrlarda, turli xildagi xalqlarning madaniyati, dini, e’tiqodi, tarixi, tabiatini o’rganadigan, shuningdek insonlarning xordiq chiqarib davolanishlarini ta’minlabgina qolmay, balki iqtisodiyotning o’sish darajasini tezlashtirishga xizmat qiladigan tarmoq sifatida shakllanib bormoqda. Jahonda turizmning barcha turlari rivojlanishi bilan bir qatorda ba’zi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi.

Shu tufayli xizmatlar sohasini jumladan, Jizzax viloyatida turizmini rivojlantirish orqali turistik faoliyatni yaxshilash va viloyatning ichki iqtisodiyot raqobatni kuchaytirish, o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish zamon talabi bo’lib qolmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Jizzax viloyatida turistik-rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishni asoslab berish vazifasini qo’yadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi turizmni rivojlantirishda turistik-rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish tahliliga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar bajarilishi maqsad qilib olingan:

- turizm va turistik mahsulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va turlarini aniqlash;
- turizmni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari va omillarini o’rganish;
- Jizzax viloyatida turizmning mohiyati va uni rivojlantirish muammolarini aniqlash;
- Jizzax viloyatning madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish;
- Jizzax viloyatining rekreatsiya resurslari va ulardan samarali foydalanishni o’rganish;
- Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish yo’llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot ob’ekti. Jizzax viloyatida foydalanilayotgan turistik resurslar hisoblanadi

Tadqiqot predmeti. Viloyatning turistik-rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui hisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishida Jizzax viloyati turizmida turistik-rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish muammolarini bartaraf etish borasida quyidagilar ishlab chiqildi:

- turizm va turistik mahsulotlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va turlarini aniqladi;
- turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va omillarini o'rganildi;
- Jizzax viloyatida turizmning mohiyati va uni rivojlantirish muammolarini aniqlandi;
- Jizzax viloyatning madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil etildi;
- Jizzax viloyatining rekreatsiya resurslari va ulardan samarali foydalanishni o'rganildi;
- Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqildi.

BMIning amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishida berilgan takliflar amaliy jihatdan O'zbekiston mintaqalarida turistik–rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishga tushqan bo'layotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishga va tashkillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Ushbu BMI Kirish, uch bob, 10 ta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lib matn 72 –sahifadan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, ishning yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Birinchi bob *“Jizzax viloyatning tabiiy geografik xususiyatlari va tabiiy resurslari”* bo'lib, bunda Jizzax viloyatining geografik o'рни va tabiiy sharoiti, geomorfologik tuzilishi, hamda o'ziga xos iqlim va ichki suvlari, organik dunyosi tahlil qilinib o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Ikkinchi bob *“Jizzax viloyatida turizmni tashkil etish imkoniyatlari va muammolari”* ga bag'ishlangan bo'lib viloyatning turizmni tashkil etishdagi

respublikadagi o'zni, imkoniyatlari, muammolari va turistlar xavfsizligini taminlash bo'yicha tegishli tavsiyalar berilgan.

Uchinchi bobda *“Viloyatning turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanish istiqbollari”* deb nomlanib, bunda Jizzax viloyatning madaniy-tarixiy va rekreatsiya-ekoturistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil etilib kelajakda samarali rivojlantirish yo'llari yoritildi.

Xulosa va tavsiyalar qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

I BOB. JIZZAX VILOYATNING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA TABIIY RESURSLARI

1.1. VILOYATNING GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY SHAROITI

Jizzax viloyati ikki daryo, Zarafshon va Sirdaryo oralig'i tog' oldi hamda tog' orolig'i tekisliklari hududida joylashgan. Viloyat hududini janub va janubi-sharqdan Turkiston tog' tizmasining davomi hisoblangan Molguzar tog'i, g'arbdan Nurota tog'ining sharqiy qismi egallagan. Hududning shimol, shimoli-g'arbiy va shimoli - sharqiy qismi Qizilqum va Mirzacho'l tekisliklariga tutashib ketgan bo'lib viloyat reliefi janub va janubi - g'arb tomon ko'tarilib borib, tog'li hududga aylanadi.

Jizzax viloyati maydoni 21,2 ming km, kv., ya'ni, respublika umumiy maydonining 4,5 foiziga teng. Maydoniga ko'ra viloyat respublika miqyosida o'rta mavqeni egallaydi (respublikada mavjud 13 ta ma'muriy birliklarning har biriga o'rtacha 34,5 ming kv. km. yer to'g'ri keladi). Shu bilan birga mintaqaning geosiyosiy o'rni ham o'ziga xos: viloyat shimol va shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasining Janubiy Qozog'iston viloyati, janub va janubi-sharqdan Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubi-g'arbda Samarqand, shimoli-g'arbda Navoiy va sharqda Sirdaryo viloyatlari bilan chegaradosh.

Viloyat geografik o'rniga ko'ra iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga tabiiy geografik o'rnining o'ziga xosligini ham ta'kidlash joiz. U Turkiya, Koreya, Ispaniya kabi mamlakatlar bilan taxminan bir geografik kenglikda joylashganligiga qaramasdan subtropik o'lkalardan farq qilib, cho'lga xos bo'lgan tabiiy sharoitga ega, yozi bulutsiz, serquyosh, jazirama issiq va quruq, qishi esa nisbatan sovuq. Bunga janub va janubi-sharqdan viloyat hududini o'rab turgan Oloy, Turkiston tizma tog'lari, shimoldan esa ochiq bo'lganligi sababchidir.

Viloyat reliefi xilma-xil bo'lib, tekisliklar, adirlar, tog' yonbag'ri va tog'larning o'zaro mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Turkiston tog' tizmasi va uning davomi bo'lgan Molguzar va Nurota tog'lari o'ziga xos iqlim va tabiat

manzaralarini vujudga keltirgan. Voha iqlimi keskin kontinental, ammo mintaqaning tog'li tumanlarida yoz salqin, qish fasli esa boshqa hududlarga nisbatan sovuqroq keladi. Jizzax viloyati hududi materikning ichkari qismida, dengiz va okeanlardan ancha uzoqda joylashgan. Uning ta'sirini yog'ingarchilik miqdorining kamligida, harorat va namlikning keskin farq qilishida, bahori qisqa, ammo seryog'in bo'lishida, yozi uzoq va quruqligida ko'rish mumkin.

Mintaqada turli xil O'rta Osiyoga xos landshaft tiplari uchraydi. Masalan, viloyatning shimoliy tekislik qismini qumli, taqirli va sho'rxok cho'l landshaflari tashkil qilsa, janubning tekislik va tog'oldi mintaqalarining katta maydonlari madaniy landshaftlar, sharq va shimoli-sharqni esa Sirdaryo viloyatining voha landshaftlari egallagan.

Jizzax viloyati bugungi kunda sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarini keng ko'lamda rivojlantirish uchun qulay tabiiy geografik sharoitga va iqtisodiy salohiyatga hamda malakali mehnat resurslariga ega hudud hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirda mazkur hududda tabiiy boyliklardan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlar intensivligini kuchaytirish, buning uchun dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish, shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan toza, raqobat bardoshli mahsulotlar chiqarishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Viloyat hududi geografik nuqtai nazardan o'ziga xos, unda qumli cho'llar, sho'rxoklar, vohalar, tog'oldi tekisliklari, past va o'rtacha baland tog'lar uchraydi. Mintaqa tabiiy sharoitining o'ziga xosligini aholining xo'jalik yuritish faoliyatida ham ko'rish mumkin. Viloyat hududining har xil landshaft turlariga boyligi, tabiiy holda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan va shunga mos holda tabiiy-xo'jalik tarmoqlari shakllangan. Shu sababdan, tog' va tog'oldi hududlarida chorvachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, lalmikor dehqonchilik, rekreasiya va turizm rivojlangan, tekislik qismidagi eski va yangi o'zlashtirilgan yerlarda esa asosan paxta va g'alla ekiladi.



JIZZAX VILOYATI TABIIY KARTASI

Viloyatning iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Respublikaning eng

rivojlangan Toshkent va Samarqand viloyatlari oralig'idaligi hududining kompakt joylashganligi, uning iqtisodiy geografik o'rnining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu holat viloyat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish va qulay boshqarish imkonini beradi.

Jizzax viloyati geografik o'rnining «markaziyligi» va transchegaraviyligi uning tarixiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, Jizzax shahrining O'rta Osiyoning qadimiy markazlari - Samarqand, Toshkent, Xo'jand va O'ratepa oralig'ida, Buyuk Ipak yo'lida o'rtnashganligi hozirda ham respublikaning muhim transport tugunlaridan biri ekanligi viloyat markazining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini belgilab beradi.

1.2. GEOGLOGIK TUZILISHI VA REL'EFNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Viloyat hududi geologik tuzilishi jihatdan xilma-xil bo'lib, gertsin tog' paydo bo'lish davrlarida vujudga kelgan tog' tizmalaridan iborat. Alp tog' hosil bo'lish jarayonida viloyat janubidagi tog'lar qayta ko'tarilgan, shu davrgacha suv ostida bo'lgan tekislik qismlari ko'tarilish natijasida quruqlikka aylangan.

Yer yuzasini geologik tuzilishida turli xil paleozoy yotqiziqlarini Zomin, Chumqortog', Molguzar va Nurota tog'larida ko'rish mumkin, tekisliklar va tog'oldi hududlarining tuzilishida mezo-kaynozoy yotqiziqlari ishtirok etgan. Paleozoy yotqiziqlari asosan cho'kindi va metamorfik jinslarda ko'rinsa, mezozoy yotqiziqlari faqat cho'kindi jinslardan tashkil topgan bo'lib, magmatik jinslar nisbatan kamroq uchraydi.

Viloyat hududining geologik tuzilishini o'rganishga olimlardan A.P.Markovskiy, I.Hamroboev, Sh.A.Davlatov, O.A.Rajabov va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Viloyatning hozirgi yer yuzasining paydo bo'lishiga murakkab o'zgaruvchan geologik sharoitlar ta'sir ko'rsatgan va u turli rayonlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hozirgi davrda ham yer yuzasining o'zgarishi davom

etmoqda. Bunga insonning xo'jalik faoliyatining ta'sirini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu ta'sir natijasida relefning yangi antropogen shakli paydo bo'lmoqda.

Viloyat yer yuzasining tuzilishi bir xil shakllanmagan bo'lib bunda, tekisliklar, adirlar, tog'oldi va tog'larning o'zaro mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Mutaxassislar fikricha, orografik jihatdan Jizzax viloyati bir-biridan keskin farq qiladigan ikki qismga ajraladi-tekislik va tog'lik. Viloyatning shimoliy qismi asosan tekislik va pasttekisliklardan iborat, qolgan tomonlardan uni Turkiston tizmasining tarmoqlari bo'lgan *Chumqortog'*, *Molguzar* va *Nurota* tog'lari o'rab turadi.

Bu ikki qism relefi va geologik tuzilishiga ko'ra muayyan tafovutlarga ega. Masalan, viloyatning tekislik qismi shimoli-g'arbga tomon qiya bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 metrni tashkil qiladi. Turkiston tizmasining davomi hisoblangan Molguzar tog'ining o'rtacha balandligi viloyat hududida 1700-2200 metrga teng, u g'arbga qarab davom etib Sangzor daryosi orqali Nurota tog'idan ajraladi.

Viloyat hududida turli xil landshaftlarni ko'rish mumkin. Masalan, mintaqadagi chekka shimolni Qizilqum cho'li egallagan. Qumlar va qum tepaliklari, botiqlardagi sho'rxoklar bilan aralashib ketgan yerlar, viloyatning bu qismidagi landshaftning asosini tashkil qiladi. Shimoli-sharq va sharq tomondan viloyat hududi Sirdaryo viloyatining voha landshafti bilan chegaradosh. Janub va janubi-sharqdan hudud Oloy va Turkiston tizma tog'lariga tutashib ketgan.

Nurota tog' tizmasi sharqda Molguzar tog'i bilan Sangzor daryosi kesib o'tadigan Amir Temur (Ilono'tdi) darvozasi orqali ajraladi va uning kengligi 120-130 metrni tashkil qiladi. Nurota tog' tizmasi g'arbga borgan sari ko'tarilib boradi, markaziy qismida joylashgan va eng baland nuqtasi hisoblangan Sarihoyat (Hayotboshi, 2169 m) tog'idan keyin yana asta-sekin pasayib boradi. Nurota tog' tizmasi asosan granit, bazalt, ohaktosh, qumtosh va boshqa tog' jinslaridan tashkil topgan.

Nurota tog' massivining janubiy qismi keng va biroz qiyalashib borsa, shimoliy qismining yonbag'ri aksincha tikdir. Biroq bu tik yonbag'irlar soy suvlari

va yog'in tufayli vujudga kelgan soychalar bilan yuvilgan va keng vodiychalar hosil qilgan. Nurota tog' tizmasi shimoliy va janubiy tarmoqlarga bo'linadi, ular orasida keng denudatsion tekislik mavjud.

Hududning yer yuzasidagi harorat keskin o'zgarib turadi, bu va quruq iqlim tog' jinslarining nurash jarayonini tezlashtiradi. Shu boisdan tog' yonbag'irlari o'simlik kam o'sadigan xarsang, g'o'latosh, shag'al va yemirilgan tosh parchalar qatlami bilan qalin qoplangan. Mavsumiy yog'ingarchilik nuragan tog' jinslarini oqizib ketadi va sayqallaydi. Bu jinslar qurib qolgan o'zanlarda va tog' etaklarida mayda tosh va qumloqlar hosil bo'lishiga olib kelgan.

Viloyatning shimoli-sharqiy qismi tekisliklardan iborat bo'lib, u shimol va shimoli g'arb tomon kamroq pasayib boradi. G'arbda Qili daryosi, shimoli-sharqda Aydar-Arnasoy botig'igacha bo'lgan maydonni egallagan. Mutlaq ko'rsatkichlari janubi-sharqda 300 m ga, shimoli-g'arbda 240-230 m ga tengdir. Nurota tizmasining shimolidagi tekislik reliefi shimoli-sharq tomon cho'zilgan va uni bir qismini Baliqlitog', Egarbellitog', Pistalitog' va Xonbanditog' kabi palezoy past tog'lari egallagan. Ushbu tekislikning shimoli-g'arbiy qismi Arnasoy, Tuzkon va Aydar botiqlariga tutashib ketgan va u sharqdan g'arbga tomon asta-sekin pasayib boradi. Viloyatning chekka shimoliy va shimoli-g'arbiy qismining reliefi Qizilqum qumlari va qumtepalaridan tashkil topgan.

Shunday qilib, Jizzax viloyatining orografik tuzilishi uning iqlim xususiyatining shakllanishida muhim rol o'ynab o'simlik, tuproq va boshqa tabiiy komponentlarning joylanish qonuniyatlarini belgilagan. Viloyat landshafti o'ziga xos, uning takrorlanmasligi va geografik jihatdan noyobligini alohida ta'kidlash lozim. Mavjud tabiiy sharoitlar xo'jalik yuritishda mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olishni talab etadi.

1.3. IQLIMI VA ICHKI SUVLARI

Har bir hududning iqlimi boshqa joylardagi iqlimga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Jizzax viloyati iqlimi yer yuzasining tuzilishi, geografik o'rni, shimol va g'arbdan esuvchi havo massalari, janubda tog'

tizmalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Mintaqa iqlimi keskin kontinentalligi va quruqligi bilan ajralib turadi. Qishda Sibir va Arktika sovuq havo massalarining to'siqsiz kirib kelish imkoni mavjud. Ular qisman viloyat janubidagi tog'lardan o'tolmasdan shu hududda to'planib qoladi. Natijada qishda havo harorati pasayadi va eng sovuq oy hisoblangan yanvarda viloyat hududining deyarli hamma joyida harorat manfiy ko'rsatkichga ega bo'ladi.

Yanvar oyida o'rtacha harorat janubdan shimolga tomon o'zgarsa ham, o'rtacha harorat $-1^0, -5^0$ S ni tashkil etadi. Qishda ayrim vaqtlarda havo harorati $-25^0, -27^0$ S gacha pasayishi mumkin. Viloyat hududida yoz jazirama issiq va quruq, eng issiq oy iyul oyi hisoblanib, o'rtacha harorati $+28^0, +30^0$ S darajani tashkil etadi. Yozda ayrim kunlari havo harorati $+43^0, +45^0$ S darajagacha ko'tarilishi mumkin.

Viloyat hududi okean va dengizlardan ancha olisda joylashganligi sababli, havo harorati yil fasllari davomida bir-biridan keskin farq qiladi. Yoz va qish fasllari nisbatan uzun bo'lganligi sababli, bahor va kuz fasllari qisqaroq keladi. Viloyatning janubiy qismdagi tog'lar va ularning yonbag'irlarida iqlim tekisliklarga nisbatan salqin va biroz sernam. Viloyat hududining shimoldan janubga, g'arbdan sharqqa uzoq masofaga cho'zilmaganligi, yaxlitligi va subtropik kengliklarga yaqin joylashganligi, harorat rejimining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Natijada, fevraldan boshlab to noyabr oyigacha yerga quyoshdan tushayotgan energiya, uning sarf qilinishiga nisbatan ko'proqdir.

Viloyatning shimoliy tekislik qismida, havo harorati taqsimlanishining balandlik mintaqalariga bog'liqligi kuzatilmaydi. Buni hududning shimol va g'arb, ya'ni sovuq va nam havo massalari kirib keladigan tomondan ochiqqligi, janub va sharqdan tog' tizmalari bilan ihotalanganligi hamda, maydonining shimoli-g'arb qismi pasayib borishi bilan izohlash mumkin.

Yil davomida o'rtacha 250 - 270 kun havo ochiq bo'ladi. Yillik quyoshli kunlar 2800 - 3000 soatga teng. Sovuq bo'lmaydigan davr viloyat hududida o'zgaruvchan bo'lib, shimolda 180 - 210 kunni, janubda 225 - 235 kunni tashkil

etadi. Havoning samarali harorat yig'indisi janubda 5450^0 - 5500^0 dan, shimolda 4300 - 4500^0 gacha kamayib boradi.

Viloyat hududida yillik yog'in miqdori teng taqsimlanmagan va bu hol yil fasllariga ham tegishlidir. Yog'ingarchilik asosan qish va bahor fasllariga to'g'ri keladi. Kuz nisbatan quruqroq bo'lib, yozda deyarli yog'ingarchilik bo'lmaydi. Yog'ingarchilik miqdorining kam yoki nisbatan ko'pligi joyning mutlaq balandligiga ham bog'liq. Shu sababdan shimoldan janubga, ya'ni tekislikdan tog'ga qarab yog'ingarchilik miqdori ko'payib boradi.

Masalan, yillik yog'in miqdori mutlaq balandligi 276 m bo'lgan Mirzacho'lda 295 mm ga, balandligi 392 m bo'lgan Jizzaxda 336 mm ga, balandligi 1313 m bo'lgan Sangzorda 400 mm ga yetadi. Yillik yog'ingarchilik miqdorining 60-70 foizi yilning sovuq davriga to'g'ri keladi. Qish faslida yog'ingarchilik asosan qor shaklida yog'ib, uzoq turib qolmaydi. O'rtacha qor turib qoladigan kunlar bir yilda tekisliklarda 20-22 kun, tog'li hududlarda 60-70 kunni tashkil etadi. 1000 metrdan balandroqda qor qatlami har yili paydo bo'lib, balandlashgan sari saqlanib turish muddati uzayaveradi.

Viloyatning tekislik qismida ham, tog' etaklarida ham nam yetishmaydi. Hududning tekislik qismida o'rtacha yillik yog'in miqdori 250 mm bo'lib, mumkin bo'lgan bug'lanish miqdori 1000-1200 mm tashkil etadi. Viloyat hududida kuchli shamollar ham bo'ladi. Mahalliy shamol hisoblangan "Jizzax" shamolining shakllanishida bevosita orografik omil sababchi, hududning shimol va shimoli-g'arbdan ochiqqligi hamda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining kengayishi, ayniqsa fasllar o'zgarishi davrida ba'zan kuchli shamollarni keltirib chiqaradi.

Xususan, Sangzor vodiysining Mirzacho'lga chiqaverish joyida kuchli shamollar sodir bo'lib, tezligi sekundiga 15 metrdan oshadigan kunlar yiliga Jizzaxda 20-24 kunni tashkil etadi. Yozda shamol tuproq tarkibidagi namning ko'plab bug'lanishiga, chang to'zon ko'tarilishiga olib kelsa, qishda qorlarni uchirib tuproq mo'zlashiga sababchi bo'ladi.

Ba'zan yozda esadigan issiq, quruq va chang-to'zonli garmsel shamoli havo haroratining keskin ko'tarilib ketishiga olib keladi. Kuchli bug'lanish natijasida

ekin va daraxtzorlar zararlanadi, ularning hosildorligi pasayadi. Ba'zan kuchli do'l va jala yog'ishi xalq xo'jaligiga zarar yetkazadi. Xususan, bahorda do'l va jala paxta maydonlarida qatqaloq hosil qilib chigitni unib chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Viloyat iqlimining shakllanishiga keyingi yillarda Orol dengizi muammolari va Aydar-Arnasoy texnogen obektining ta'siri ham sezilmoqda. Masalan, so'nggi yillarda ro'y berayotgan, yoz oylarida havo haroratini haddan tashqari isib ketishi yoki keskin o'zgarib, yog'ingarchilik yog'ish hollari oldin kuzatilmagan.

Jizzax viloyati agroiklim resurslarining yetarliligi bilan ham alohida ajralib turadi. Yillik harorat yig'indisi 4000 - 6000 ⁰, quyoshli kunlar 2800-3000 soatga teng, vegetasiya davri 220-230 kungacha davom etadi. Iqlimning issiqligi va vegetasiya davrining uzoqligi paxtaning o'rtapishar va hatto janubda ingichka tolali navlarini yetishtirish imkonini beradi. Paxtadan tashqari viloyat o'zining poliz mahsulotlari, uzum, anor, anjir, olma va boshqa mevalari bilan ham mashhurdir. Yog'ingarchilik miqdorining kamligi va uning teng taqsimlanmaganligi (250-350 mm) dexqonchilikni sug'orish asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Molguzar, Nurota tog'lari va xususan Turkiston tog' tizmasi o'zining betakror tabiati, toza havo va ajoyib iqlimi bilan mashhurdir. Shu sababdan bu joylarda ko'plab dam olish maskanlari va sihatgohlar qurilgan. Respublika miqyosidagi Zomin sanatoriyasi o'pka, bronxit, astma va qon-tomir kasalliklarini davolashda katta ahamiyatga ega.

Ichki suvlari. Jizzax viloyati hududida gidrografik tarmoq nihoyatda notekis taqsimlangan. Tekislik hududlarida deyarli daryolar va soylar yo'q. Aksincha, tog'li hududlarda yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli daryo tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Mavjud daryo va soylarning suv miqdori, rejimi va tarmoqlanishi geografik sharoitga ham bog'liqdir. Masalan, Turkiston, Chumqortog', Zomin tog'laridan boshlanadigan daryo va soylar, Molguzar va Nurota tog'laridan boshlanadigan daryo va soylarga nisbatan suv yig'ish manbalari 2800 - 3300 m balandlikda joylashganligi sababli uzun va sersuv hisoblanadi.

Viloyat gidrografiyasida Sangzor va Zominsuv daryolari muhim rol o'ynaydi. Sangzor daryosi taxminan 3300 metr balandlikdagi Chumqortog' tizmasining shimoliy yonbag'ridan boshlanadi. U ikkita tog' soyi - G'o'ralash va Jontakaning qo'shilishidan paydo bo'ladi va Molguzar tog'lari orqali Jizzax vohasiga kirib keladi. Uzunligi 123 km, suv yig'ish maydoni 2580 kv.km. Sangzor daryosining yillik o'rtacha suv oqimi 6,9 metr kub. sekundni tashkil etadi. Yog'in ko'p yog'adigan yillarda suv sarfi keskin oshadi.

Sangzor qor va yomg'irlardan to'yinadigan daryolar tipiga kiradi. Asosiy suv oqimi may-iyun oylariga to'g'ri keladi, noyabr-dekabr oylarida esa eng kam suv oqimi kuzatiladi. Tekislikka chiqqanidan keyin daryo suvi to'la sug'orish uchun foydalaniladi, ammo suvga bo'lgan ehtiyojni qoplay olmasligi sababli XVI asrda qazilgan, uzunligi 100 km dan ortiqroq bo'lgan Tuyatortar kanali orqali suv Zarafshon daryosidan Sangzor daryosiga quyiladi.

Ikkinchi yirik suv manbai Zominsuv daryosi hisoblanadi. U Turkiston tog'larining yuqori qismida Qashqasuv, Ko'lsuv va Qizilmozor soylarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 41 km, suv yig'ish maydoni 709 kv. km., o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 2,0 metr kub sekund, daryo mavsumiy qor va yomg'irlardan to'yinadi, mart-iyun oylarida sersuvdir. Daryo suvi Zomin shahridan o'tib tekislikka chiqqandan keyin sug'orish uchun foydalaniladi.

Molguzar tog' tizmasidagi qor va yomg'irlardan to'yinadigan bahorda sersuv bo'lib, tekisliklarga chiqishi bilan sug'orishga ishlatiladigan Ravotsoy, Pishag'arsoy, Jaloirsoy, Turkmansoy kabi soylar mavjud. Ularning o'rtacha yillik suv sarfi 0,17-0,60 metr kub sekundga teng. Nurota tizmasining shimoliy yonbag'ridan boshlanuvchi Osmonsoy, Ilonchisoy, Uchmasoy, Uxumsoy, Mojarumsoy, Andaginsoy kabi soylarning suvi bahorda ko'payib, yozda kamayib qoladi. Jami daryo va soylarning suv resursi taxminan 368 metr kub sekundni tashkil etadi.

Jizzax shahridan 7 km janubi-sharqda Sangzor daryosi va Ravotsoy qo'shiladigan tog' etagidagi tekislikda 1965 yilda Jizzax suv ombori barpo etilgan. Suv hajmi 90 mln m³, maydoni 11 km², uzunligi 3,3 km, kengligi 5,1 km, eng

chuqur joyi 22 m ga teng. Suv omboriga Sangzor va Ravotsoydan tashqari Tuyatortar kanali orqali Zarafshon daryosidan ham suv olinadi. Oxirgi yillarda qo'shimcha kanallar va nasos stansiyalari qurilib, Sirdaryo suvi ham Jizzax suv omboriga quyiladigan bo'ldi. Viloyat hududida bundan tashqari Novqa, Qorovultepa, Ravot, Zomin, Sarmich, Arnasoy suv omborlari qurilib ishga tushirilgan.

Mavjud suv omborlari minglab gektar yerlarni sug'orish imkonini beradi. Qishloq xo'jalik ekinlarini suv bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida hamda viloyatning shimolida Sirdaryoning qishki mavsumda oqadigan suvlarini to'plash va undan samarali foydalanish uchun Arnasoy suv ombori qurib bitkazildi. Viloyatda sun'iy sug'orish tizimi ham barpo etilgan. 1975 yildan boshlab Sirdaryo suvini Jizzax cho'liga yetkazib berish uchun uchta nasos stansiyasi qurilgan. Ular yordamida suv 178 m ga ko'tarilib, kanallar yordamida sug'oriladigan maydonlarga yetkazilib berilmoqda. Viloyatning cho'l hududida beshta magistral kanal barpo etilgan.

Jizzax viloyatining shimoliy tekislik qismida tovoqsoy shaklidagi botiqda yagona tabiiy ko'l Tuzkon ko'li mavjud. Olimlar uni Orol - Kaspiy yagona dengizidan qolgan ko'l deb hisoblashadi. XX-asrning birinchi yarmida uni maydoni bahorda 100 kv.km. gacha kengayib, hatto Aydar sho'rxogini ham bosib ketgan, kuzda esa aksincha maydoni 2,5 baravargacha qisqargan. Ba'zi mutaxassislarning (N.A.Kenesarin, 1959) ma'lumotlariga qaraganda ko'l har yili qurib qolgan va uning tubidan tuz qazib olingan.

1969 yili, yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli Chordara suv omborida haddan tashqari ko'p suv yig'ilgan va Chordara suv omborining to'g'onini yuvib ketish xavfi paydo bo'lgan. Mazkur xavfni bartaraf qilish uchun Aydar-Arnasoy pastligiga taxminan 21,8 km³ ortiqcha suv tashlangan. Natijada Tuzkon ko'li va Aydar sho'rxogi suv ostida qolib, ayrim joylarda suv sathi 22 m gacha ko'tarilgan va 184 ming ga maydonga ega bo'lgan sun'iy ko'l paydo bo'lgan.

Keyingi o'ttiz yil ichida Chordara suv omboridagi ortiqcha suvlar bilan birga, Sirdaryo, Jizzax va Janubiy Qozog'iston viloyatlarining sug'oriladigan

maydonlaridan chiqadigan kollektor-drenaj va tashlandiq suvlar ham shu joyga kelib qo'shilgan. Bugungi kunda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining umumiy maydoni taxminan 3039 kv.km. Uzunligi 170-200 km, kengligi 25-40 km, chuqurligi 30-40 metrga yetgan. Ko'l suvi sho'r bo'lib, uning sho'rlanish darajasi sharqdan g'arb tomonga ko'tarilib boradi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining atrof-muhitga ta'siri oqibatlarini baholash uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Viloyat hududida yer osti suvlari turli chuqurliklarda joylashgan. Ulardan aholi qadimdan foydalanib kelgan. Mazkur yer osti suvlari yog'inlar, daryo va ariq suvlarining yerga singishidan vujudga keladi. Yer yuzasiga yaqin joylarda yer osti suvlarining bir qismi bug'lanib, tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda. Hududda artezian suv havzalari ham mavjudligi aniqlangan. Ular yordamida minglab gektar ekin maydonlari, shahar va qishloqlar aholisini suv bilan ta'minlash mumkin. Mutaxassislar tomonidan viloyat hududida 11 ta yer osti suv havzalari topilib, ularning zahiralarini aniqlangan.

1.4. TUPROQ VA ORGANIK DUNYOSI

Jizzax viloyati hududida O'zbekistondagi barcha tuproq turlarini ko'rish mumkin. Bunga hududning nisbatan balandda joylashganligi, yer yuzasining nihoyatda parchalanganligi, tuproq hosil qiluvchi jinslarning har xilligi, iqlim sharoiti, o'simlik qoplami va insonning xo'jalik faoliyati sababchidir. Turli xil tuproq tiplarining hosil bo'lishi va hududiy taqsimlanish xususiyatiga ko'ra cho'l, cho'la cho'l, dasht, o'rmon-dasht va baland tog' o'tloq tuproqlar zonasi mavjud.

Viloyatning shimoliy qismida joylashgan tabiiy botig' va so'nggi yarim asr davomida ushbu hududda paydo bo'lgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofida sho'rxoklar tarqalgan. Sho'rxoklar yer yuzasiga yaqin bo'lgan yer osti suvlarining bug'lanishi va uning tarkibidagi tuzlarning tuproqda qolib ketishi natijasida paydo bo'lgan. Bu tuproqlar deyarli gumus qatlamga ega emas va o'simlik qoplami ham kambag'al.

Jizzax viloyati hududida joylashgan Qizilqum cho'lining janubi-sharqiy qismida qumli cho'l tuproqlari tarqalgan. Qumli cho'l tuproqlarning yuza qismi 8-10 sm gacha sochilma qumlardan iborat, bu o'simlik ildizlari uchun noqulay bo'lishiga qaramasdan sho'rxoklarga nisbatan o'simlik biroz ko'p.

Qumli cho'l tuproqlarida chirindi va ozuqa moddalar kam, u 0,3-0,6 foizni tashkil qiladi, bunga cho'l sharoitida biologik jarayonlarni juda tezlik bilan o'tishi sababchidir. Hududning pastqam joylarida ham ba'zan sho'rxok tuproqlar uchraydi, yuzasi tekis, biroq zich, bu tuproqlarda o'simliklar o'sa olmaydi va ular foydalanish uchun noqulaydir. Sho'rxoklarda chirindi va ozuqa moddalar deyarli yo'q. Ular tarkibida suvda tez eriydigan xlorli, sulfatli va natriyli tuzlar mavjud, bu esa ularning kimyoviy xususiyatlarini yomonlashtiradi.

Nurota tizmasining shimoliy qismidagi tog'oldi tekisliklarda keskin kontinental iqlim sharoitida och bo'z tuproqlar tarqalgan. Iqlim keskinligi, yog'ingarchilikning bug'lanishga nisbatan katta tafovutga ega ekanligi, tuproq qatlamiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Chirindi moddalari tuproqning yuqorigi 15-20 sm lik qatlamida mavjud bo'lib, 1,5 % dan oshmaydi. Tog'lardan uzoqlashgan sari tuproqning gips qatlami yer yuzasiga yaqinlashib, sho'rlanish darajasi oshib boradi. Tog' etagi tekisliklaridagi bo'z tuproqlar asosan bahorikorg'allachilikni rivojlantirishda va chorva yaylovlari sifatida foydalaniladi.

Inson sug'oriladigan tuproqqa har xil ishlov berib, uning tabiiy xususiyatini o'zgartirgan, natijada madaniy qatlam vujudga kelgan. Bo'z tuproqlar ko'pincha obikor yerlar hisoblanib, unda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladi. Ko'p yillik agrotexnik ishlov berish natijasida sug'oriladigan bo'z tuproqlar tarkibida azot, fosfor, kaliy va boshqa ozuqa elementlari ko'paygan. Ular tarkibidagi chirindi miqdori 2-4% ni tashkil etadi. Viloyatning tog' etaklarida va tog' yonbag'irlarining dengiz sathidan 1000 -1600 metrgacha balandlikda bo'lgan joylarida to'q tusli bo'z tuproqlar va och tusli jigarrang tuproqlar tarqalgan bo'lib, ularning tarkibidagi chirindi miqdori 3-5 % dir.

Tog'li hududlarning dengiz sathidan 1500-1800 m gacha bo'lgan joylarida to'q tusli bo'z tuproq, jigar rang va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari tarqalgan. Bunday

tuproqlarni Zomin tog'lari, Molguzar va Chumqortog' tizmalarining shimoliy yonbag'rida uchratish mumkin. 2000-2600 m dan baland bo'lgan Zomin tog'i va CHumqortog'ning suvayirg'ich qismlarida asosan och qo'ng'ir tuproqlari mavjud, ularda ko'pincha tuproq hosil qiluvchi jinslar qatlami ko'rinib turadi. Tuproq qatlamining yupqaligini iqlimning keskinligi va vegetasiya davrining qisqa ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda qishloq xo'jalik tarmog'ining rivojlanishi ko'p jihatdan yer resurslariga bog'liq. Mavjud tuproqlar ancha unumdor bo'lishiga qaramasdan, agrotexnik va agrokimyoviy tadbirlarni doimo o'z vaqtida amalga oshirishni talab qiladi. Amalga oshirilayotgan irrigasiya va meliorasiya tadbirlari tuproqlarni tez sho'rlanishdan saqlaydi, ammo bu ishlar doimiy va tizimli bo'lishi kerak.

Mustaqillik yillarida yer resurslari tizimining tavsifi, ya'ni yer kadastri yaratildi. Kadastr so'zi yunon tilida *katastichon*—"varaq, mol-mulk daftari yoki mulkiy daftar" degan ma'noni bildiradi. Bu so'z keyincha, fransuz tiliga *kadaestre* shaklida kirib kelgan, vaqt o'tishi bilan rus va u orqali o'zbek tiliga kadastr shaklida qabul qilingan. Endilikda yer kadastriga asoslanib, har bir sug'oriladigan maydonni ball bonitetini aniqlash mumkin. Bu viloyat hududida qishloq xo'jalik ekinlarini to'g'ri joylashtirish va undan olinadigan hosildorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

O'simliklari. Jizzax viloyatidagi tabiiy-geografik sharoitning ta'sirini mintaqadagi mavjud o'simliklar qoplamida ham ko'rish mumkin. Shu sababdan, viloyat hududi balandlik mintaqalanish qonuniyatlariga asosan shimoldagi tekisliklardan, janubdagi tog'lar tomon o'simliklar turi o'zgarib boradi. Hududning yozi issiq, quruq, serquyosh, qishi nisbatan sovuq bo'lishi o'simliklar o'sishi uchun biroz noqulay bo'lishiga qaramasdan, viloyat hududida o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. O'simliklar hududning geomorfologik tuzilishiga bog'liq holda pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi. Shu sababdan viloyatda cho'l, chala cho'l, dasht, tog' o'rmon-dasht va tog' o'tloq mintaqalariga xos o'simliklar uchraydi.

Har bir balandlik mintaqasining o'simlik qoplami o'sha hududning tuproq qatlami, geomorfologik tuzilishi va iqlimiy xususiyatlariga moslashgan. Viloyatning shimoliy qismidagi cho'l mintaqasida joylashgan tabiiy botiq va hozirgi Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofi sho'rxok va taqir yerlardan iborat bo'lganligi sababli, o'simlik qoplamiga kambag'al. Ma'lumki, taqirlar tarqalgan yerlarda o'simlik deyarli o'smaydi, faqat uning yoriqlarida siyrak holda sho'ra o'simligi uchraydi.

Tuproq tarkibidagi sho'rning kamayib borishi bilan o'simliklar turi ko'payib boradi. Sho'rxoklarda o'sadigan o'simliklar asosan galofitlardan iborat bo'lib, bunday o'simliklar turiga burgan, yulg'un, qorasho'ra, sho'rajriq, tereskan, kabilar kiradi. Saksovullardan qorasaksovu'l sho'rga nisbatan chidamli, uzoq yashaydi va yoqilg'i sifatida foydalaniladi.

Viloyatning chekka shimoli va shimoli-g'arbiy qismida joylashgan qumli cho'lda juzg'un, quyonsuyak, qizilcha, selin, cherkez, astragal kabi o'simliklar o'sadi. Ular qumli cho'llarda endemik bo'lib, ko'chib yuruvchi qumlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Viloyatning cho'l mintaqasida namgarchilik yetarli bo'lgan bahor faslida bir yillik, efemer va ko'p yillik efemeroid o'simliklar o'sadi.

Efemerlar hisoblangan arpag'on, taroqbosh, qo'shoyoq, qoramoshok, lolaqizg'aldoq bahorda yog'ingarchilik ko'p bo'lgan davrda barq urib o'sib, jazirama issiq va quruq kunlar boshlanishi bilan qurib qoladi. Sug'oriladigan maydonlarda tabiiy o'simlik qoplami inson faoliyati natijasida ancha o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Ayniqsa Jizzax cho'lining o'zlashtirilgan qismida yovvoyi o'simliklar o'rnini butunlay madaniy o'simliklar egallagan.

Chala cho'l va dasht mintaqasi viloyatning 500 -1300 m gacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada cho'lga nisbatan o'simlik turi ko'proq va qalinroqdir, bunga yog'in miqdorining ko'payishi, haroratning cho'lga nisbatan pastroq bo'lishi sababchidir. Cho'lga tutash adirlarda efemer va efemeroidlardan qo'ng'irbosh, chuchmoma, kavrak, qoqi, no'xatak, lola, shashir kabilar iyul oyigacha o'sadi. Shuvoq, mingbosh, taktak, otquloq, ermon, zubtutum, karrak,

qiltiq, shirach va boshqalar adir balandlik mintaqasining asosiy o'simliklari hisoblanadi.

Tog' o'rmon-dasht balandlik mintaqasi viloyat hududidagi 1300 -2700 m gacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Balandlikka ko'tarilgan sayin, havo haroratining pasayishi va yog'in miqdorining ko'payishi o'simlik dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Tog' balandlik mintaqasining qo'yi qismida gulxayri, arslonquyruq, chayir, chalov, bug'doyiq, tog' yalpizi, shuvoq, kabi o'simliklar uchraydi.

Tog'lar tabiiy sharoitidagi tafovut, uning o'simlik qoplaminin joylashishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Tog' balandlik mintaqasining yuqori qismida daraxtlar va butalar keng tarqalgan, ular orasida archazorlar katta maydonlarni egallaydi. Zomintog', Chumqortog' va Molguzar tog'ining shimoliy yonbag'rlarida archazorlar mavjud. Nurota tog'larining eng baland qismi hisoblangan Uxum va Mojarumsoyning yuqori qismida archazorlar borligi aniqlangan. Archazorlar tagida esa har xil o'tlar va butalar uchraydi. Boshqa daraxtlardan bodom, yong'oq, tut, zarang, do'lana, yovvoyi olma, tog' olchasi ham keng tarqalgan. Butalardan na'matak, zirk, irg'ay, dorivor o'simliklardan tog' piyoz, kiyiko't, rovoch, toron va boshqalarni uchratish mumkin.

Tog' o'tloq mintaqasi viloyatdagi balandligi 2700 metrdan balandroq, ammo uncha katta bo'lmagan hududlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada subalp o'tloqlari mavjud va ular tog' o'rmon-dasht balandlik mintaqasi o'tloqlaridan bo'yi bir muncha pastligi bilan farq qiladi. Subalp o'tloqlari Zomintog', Chumqortog' va Molguzar tog'ining tuproq qatlami nisbatan yaxshi rivojlangan, sernam joylarida vujudga kelgan, ular orasida qo'ng'irbosh, mushukquyruq, toron, yovvoyi arpa, chayir, shuvoq, betaga kabi o'simliklar keng tarqalgan. O'tloqlardan yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Jizzax cho'lining o'zlashtirilishi munosabati bilan tabiiy o'simlik qoplami ancha o'zgargan. Ular o'rnini madaniy o'simliklar hisoblangan paxta, makkajo'xori, bug'doy, beda, poliz ekinlari, turli xil sabzavotlar hamda mevali bog'lar egallagan. Sug'orish tizimlari bo'yicha ekilgan daraxtlarning ildizlari

qirg'oqni suv yuvib ketishidan asraydi. Bundan tashqari daraxtlar g'o'za va boshqa ekinlarni garmseldan himoya etadi, iqlim sharoitini ancha yumshatadi, aholi punktlarni qumbo'ron, garmisel va jazirama issiqdan himoya qiladi.

Daraxtzorlar soya-salqin joy, toza havo manbai va ajoyib dam olish maskani hisoblanadi. Daryo va soylar o'tadigan vodiylarda yaproqli va ignabargli o'rmonlar joylashgan, ular tog' yonbag'irlarini nurash jarayonidan himoya qilishi bilan birga, xo'jalik ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda viloyatda respublikaning boshqa mintaqalari kabi qurilishbop material hisoblangan terak daraxtini ko'paytirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Sug'orma dehqonchilik qilinadigan joylarda, yo'l yoqalari, kanallar va ariqlar bo'yida pillachilikni rivojlantirish maqsadida tutzorlar barpo etilgan. O'tqazilgan daraxtlar shamol yo'lida himoya vositasi sifatida, hudud mikroiklimini yumshatishda, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga va sizot suvlarining pastroq tushishiga xizmat qiladi.

Hayvonot olami. Jizzax viloyatining hayvonot dunyosi mahalliy landshaft sharoitiga moslashgan. Mavjud tekislik zonasida va balandlik mintaqalarida ularning o'ziga xosligi va xilma-xilligini kuzatish mumkin. Hududning shimoliy tekislik qismi cho'l mintaqasida joylashganligi sababli, hayvonot dunyosi ham cho'l sharoitiga moslashgan. Masalan, cho'lda yoz faslida kunduzi tuproq 70-80⁰ gacha qizib ketishi sababli ko'pchilik hayvonlar soya-salqin inlarida yashirinib kech kirishi bilan faollashadi.

Bunday hayot tarziga moslashgan hayvonlar turiga chirildoq, kaltakesak, ilonlar, echkemar, kirpi va boshqalar kiradi. Jizzax cho'lida sut emizuvchilardan olako'zan, tulki, chiyabo'ri, kemiruvchilardan yumronqoziq, ko'rsichqon, qumsichqon, sudralib yuruvchilardan echkemar, o'qilon, kaltakesaklar, toshbaqa, qushlardan to'rg'ay, qorabovur, cho'l qarg'asi, xo'jasavdogar, so'fito'rg'ay, hashorotlardan qoraqurt, chayon, falanga, biy, chigirtka kabilar yashaydi.

Sudralib yuruvchilar ko'p bo'lganligi sababli cho'lni sudralib yuruvchilar makoni deyish mumkin. Barcha cho'l hayvonlari tez yugurishga, tana haroratini boshqarishga imkon beradigan morfologik belgilarga ega. Hatto sekin

harakatlanadigan tipratikanlarning ham oyoqlari, quloqlari va ignalari nisbatan uzun. Kaltakesaklar uzun oyoqlari, tovonni va dumi yordamida tez chopadi. Cho'l qushlari yerda tez yuguradi (yo'rg'a tuvaloq, yilqichi) yoki tez uchadigan (qorabovur, oqbovur) bo'ladi. Ko'pchilik tuproq ustida yashovchi cho'l qo'ng'izlarining oyoqlari odatdagi sharoitda yashovchi qo'ng'izlarga nisbatan birmuncha uzun. Vizildoq qo'ng'izlar, chirildoqlar, falangalar, ayniqsa, qum biyi tez yuguradi.

1969 yildan keyin Aydar botig'ida paydo bo'lgan ko'llar tizimi mahalliy landshaftning o'zgarishga olib keldi. Suv atrofida paydo bo'lgan to'qayzorlarda turli hayvonlarning tarqalishi va yashashi uchun qulay sharoit mavjud. To'qaylarda yirtqich hayvonlardan chiyabo'ri, bo'ri, tulki, to'qay mushugi yashaydi. Bu joylarda qushlar ko'p, qarqara, g'oz, o'rdak, birqozon va chiroyli qushlardan biri hisoblangan qirg'ovullar ham bu joyni o'ziga maskan qilib olgan.

Atrofdagi ko'llar shimoldan janubga va aksincha uchib ketayotgan mavsumiy qushlarning to'xtab o'tishi va qishlashi uchun qulay hisoblanadi. To'qaylarda turli xil hashoratlar ko'p tarqalgan. Aydarko'lda 20 dan ortiq baliq turi, jumladan, zog'ora baliq, laqqa, sudak, usach (mo'ylov baliq), ilonbaliq mavjud, ular nafaqat Jizzax, balki qo'shni Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari aholisining baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qisman qondirish imkoniyatiga ega.

Viloyatning sug'orib eqiladigan mintaqasida inson faoliyati hayvonot olamiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Shu sababdan yangi sharoitga moslasha olmagan hayvon turlari yo'qolib ketgan. Adir mintaqasining hayvonlari mavjud landshaftlarga mos ravishda bir-biridan farq qiladi. Adirlar lalmikor yerlar sifatida foydalanilganligi sababli hayvonlardan ko'proq qushlar, kemiruvchilar va hasharotlar uchraydi.

Tog'da hayot sharoiti cho'ldagiga nisbatan xilma-xil bo'lgani sababli hayvon turlari ham ko'p. Tog'ning balandligiga qarab hayvonot dunyosi ham o'zgarib boradi. Tog' ekosistemasini o'z navbatida tog'oldi adirlar, tog'

yonbag'irlari chala cho'llari, tog' dashtlari, tog' o'rmonlari va alp o'tloqlar mintaqasiga bo'lish mumkin.

Dengiz sathidan 200–600 m balandlikda chala cho'l va dasht mintaqalaridagi suv havzalari yaqinida turli xil umurtqasizlar: yalang'och shilliqlar, kapalak, ninachi, qitir pashshalar, uzunoyoq chivinlar, tuproqda yomg'ir chuvalchanglarining bir necha turi, to'garak chuvalchanglar, suv havzalarida buloqchilar, kunliklar lichinkalari, zuluklarning bir necha turi, baliqlar, qisqichbaqasimonlarni uchratish mumkin. Tog' adirlari endemik va noyob turlarga ham boy. Bu yerda noyob kapalaklardan maxaon, apollon, podalariy, katta sadafdor ahyon-ahyonda uchrab turadi.

Tog' yon bag'irlaridagi chala cho'llarda kulrang beshiktervatar tarqalgan. Tog' chala cho'llari mintaqasidagi gil tuproqli cho'lda cho'l toshbaqasi, qurbaqabosh taqir kaltakesak, echkemar, rang-barang kaltakesak, yilqichi, yo'rg'a tuvaloq, to'rg'aylar, sariq yumronqoziq, qo'shoyoqlar, qumsichqonlar, sariq ilon, rang-barang chipor ilon, kulrang gekkon, turkiston gekkoni kabi hayvonlar, shuningdek, ko'k qarg'a, kurkunak, sariq chumchuq, toshsirschumchuq kabi qushlar uchraydi. Bu hayvonlarning ko'pchiligi barvaqt urchiydi; yoz va qishda uyquga kiradi. Ammo qushlarning bir necha turi (ko'kqarg'a, kurkunak va sariq chumchuq) faqat iyunda jo'ja ochadi. Chigirtkasimonlar ham ana shu davrda urchigani sababli qushlar bolalari uchun oziq yetarli bo'ladi.

Dengiz sathidan 600-1100 m balandda joylashgan tog' dashtlari mintaqasida sudralib yuruvchilardan turkiston agamasi, oloy kaltakesagi, sariq ilon, ko'zoynakli ilon; qushlardan - bedana, chil, kaklik, kuyka, soch; sut emizuvchilardan - bo'rsiq, sariq sassiqko'zan, ko'rsichqon, qo'ng'ir olaxurjun, oddiy dala sichqoni va boshqalar yashaydi.

Tog' dashtlarida hasharotlar dunyosi ham juda xilma-xil. Boshoqli o'simliklarda har xil chigirtkalar, temirchaklar, qandalalar, jizildoqlar; shiralar, o'simliklar gulida changxo'r qo'ng'iz, qandala, pardaqaqnotlilar, to'rqaqnotlilar ko'p uchraydi. Tog' dashtlarining yuqori qismida qanotsiz chigirtkalar: tuya chigirtka va kanafimalar tarqalgan.

Dengiz sathidan 1200-2500 m balandda joylashgan tog' o'rmon-dashtlari mintaqasida sudralib yuruvchilardan turkiston agamasi, himolay agamasi, cho'l kaltakesagi, ko'lborilon, qalqontumshuq ilon va boshqalarni uchratish mumkin. Qushlardan - sariq chumchuq, dumparast, chittak, potmachumchuq, qizilishton, moyqutlar, zarg'aldoq ko'proq uchraydi. Jarqanotlar, pishchuxalar, tezoqar soylar yonida esa suvchumchuqlar uchrab qoladi, cho'qqilar va daralar tepasida yirtqich qushlardan tasqara bilan boltayutar parvoz qilib yuradi.

Bu mintaqada yashovchi qushlarning qanotlari kalta bo'lib, uzun dumi havoda uchayotganda boshqarish vazifasini o'taydi. Tumshug'ining shakli egilgan bigizga, boltatumshuqning tumshug'i esa qand ushatadigan qisqichga o'xshaydi; ikki barmog'i oldinga, ikki barmog'i orqaga qaragan. Shu sababli qizilishton, fotmachumchuq tik daraxtlarda chaqqon o'rmalab yuradi. Ularning dumi qattiq va egiluvchan bo'lganidan, daraxt tanasiga tayanib tura oladi.

Keng bargli o'rmonlarda turkiston kalamushi, o'rmon sichqonlari; daraxtsiz tog' yon bag'irlarida dala sichqonlari; qoyalar nurab tushgan joylarda latcha va oq suvsarlar; yon bag'irlarda relikt yumronqoziq, jirg'anoq; maymunjon chakalakzorlarida suvsar; tog' o'rmonlarida yovvoyi quyon, tulki, bo'rsiq hayot kechiradi. Qoyalarning yoriqlariga quloqdor burmalab ko'rshapalak, shimol ko'rshapalagi, g'orlarda esa taqaburun ko'rshapalak uchraydi.

Tog'larning dengiz sathidan 2700–2800 m balandlikdagi alp mintaqasi tizmalarning yuqori qismlarida kichik maydonni egallaydi. Alp mintaqasida suvda hamda quruqlikda yashovchilardan yashil qurbaqa ahyonda, sudralib yuruvchilardan - oloy kaltakesagi ko'proq, himolay agamasi va qalqontumshuq ilon kamroq uchraydi. Tog'dagi sudralib yuruvchilar tirik tug'ib ko'payishi bilan sovuq sharoitda yashashga moslashgan.

Tog' o'tloq balandlik mintaqasidagi o'ziga xos iqlim va relef xususiyatlari ba'zi hayvon turlarining tarqalishini cheklaydi, masalan, sudralib yuruvchilar kam. Shunga qaramasdan bu mintaq faunasi boshqa mintaqalarga nisbatan boyroq, bunga mavjud landshaft va ozuqa ko'pligi sabab bo'lgan. Bo'ri, o'rmon quyon, jayra, tulki, to'ng'iz, ayiq, silovsin sut emizuvchilarning tipik namoyandalari

sifatida uchraydi. Qushlarning 90 dan ko'proq turi mavjud bo'lib kaklik, burgut, tasqara, zarg'aldoq, tog' chumchug'i, qumri, boltatumshuq shular jumlasidandir.

Viloyat hududidagi tog' o'tloq mintaqasi hayvonot olami uchun noqulay bo'lib, murakkab relef va iqlim, tik yonbag'irlar, qor bilan qoplangan qoyalar, o'simlik qoplami siyrak bo'lgan subalp o'tloqlari, yaxlit tutash emasligi bilan xarakterlidir. Bular o'z navbatida hayvonot olamiga ta'sir etib ularning tur va miqdorini kamayishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa sudralib yuruvchi hayvonlar juda kam uchraydi. Yaylov mintaqasida sut emizuvchilardan Menzbir sug'uri, suvsar, qushlardan tog' zag'chasi, ular, qumay, boltayutar, tog' o'rmon chumchug'i, burgut kabilar yashaydi.

Keyingi yillarda viloyat hududidagi noyob hayvonlar turini qo'riqlash va ko'paytirishga sezilarli e'tibor berilayapti. Buni Nurota qo'riqxonasi misolida ko'rish mumkin. Olib borilgan tadbirlar tufayli olqor (Seversov qo'yi)dek noyob hayvon turi nafaqat saqlab qolindi, balki ular sonining ko'payishiga erishildi.

II BOB. JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

2.1. VILOYATDA TURIZMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI VA UNING RESPUBLIKAMIZDA TUTGAN O'RNI

Viloyatning tabiati o'ziga xos bo'lib, reliefi tog'lik, qir va tekisliklardan iborat. Janubiy qismini Turkiston tizmasining tarmoqlari (Molguzar tizmasi), g'arbini Nurota tizmasining sharqiy qismi egallagan. Shimoliy, shimoliy-g'arbiy va sharqiy qismi (Mirzacho'l va Qizilqo'm cho'lining janubiy-sharqi) tekislikdan iborat.

Jizzax viloyati respublika ishlab chiqarishda va madaniy taraqqiyotida salmoqli o'rin tutadi. Xususan, paxta, g'alla, sabzavot, meva, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. Bog'dorchilikni rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Qurilish materiallari, xalq, iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar salmog'i oshdi. Viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2,5 mlrd. so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi. Faoliyat ko'rsatayotgan 9400 ga yaqin xo'jalik sub'ektlarining qariyb 8300 tasi nodavlat xo'jaliklaridir.

Temir yo'l viloyatda asosiy transport turlaridan. Umumiy uzunligi 217 km (2001). Avtomobil yo'llari ham salmoqli o'rin tutadi. Havo yo'llari Jizzax shahrini Toshkent va boshqa viloyat markazlari, shuningdek, Kavkaz, Qrim bilan bog'laydi. Jizzax shahar ko'chalarida trolleybus qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Viloyatda 5 muzey (Jizzax viloyat o'lkashunoslik muzeyi, SHarof Rashidov muzeyi, Zomin tarixi muzeyi, Hamid Olimjon muzeyi, Mehnat qahramoni X. Nosirov muzeyi), 289 jamoat kutubxonasi (8 mln. nusxadan ortiq asar), 126 klub, 12 tuman markaziy, 73 qishloq, va shahar madaniyat uylari, 77 badiiy havaskorlik, 54 folklor-etnografik jamoalar, 12 maqomchilar guruhi, 60 xoreografik raqs dastalari, vokal va estrada guruhlar faoliyat ko'rsatadi. Jizzax viloyatida 3 teatr: Yunus Rajabiy nomidagi viloyat musiqali drama teatri, viloyat qo'g'irchoq, teatri, Gagarin shahrida qozoq milliy teatri bor.

Jizzax shahri viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi hisoblanadi. Shahar Sangzor daryosi bo'yida, 460 m balandlikda joylashgan. Toshkent-Samarqand temir yo'l va Katta O'zbekistan trakti yoqasida. Maydon 0,7 ming km². Aholisi 132,5 ming kishi (2000; 1939 y. - 9 ming, 1959 y.- 15 ming, 1970 y. — 35 ming kishi), asosan o'zbeklar; rus, tatar, ukrain, eroniy va boshqalar ham yashaydi. Toshkentdan 203 km. Temir yo'l stantsiyasi. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 1,5°, minimum temperaturasi -35°, iyulning o'rtacha temperaturasi 28,5°, maksimum temperaturasi - 46°.

Yunon solnomachilari Kiropol va Gazoni alohida tilga olishadi. Arxeo-loglar Gazoshning o'rnini aniq va asosli tayin etmasalarda, tarixiy manbalarda uni Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashganligi aytiladi. Olimlar Gazoni qadimiy Jizzax deb taxmin qiladilar. Toponimist olimlar Jizzax nomini sug'diycha «Dizak» («qal'acha») so'zi bilan bog'laydilar. Tarixda u Dizax nomi bilan yuritilgan.

Jizzax O'rta Osiyodan o'tgan bir necha qadimiy karvon yo'lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Yozma manbalarda ilk bor arab geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Huvkal va muqaddasiylarning asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olinadi. Shahar arablar istilosidan oldin ham mavjud bo'lgan. Jizzax IX – X asrlarda somoniylar, XI – XIII asr boshida qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlati, XIV – XV asrlarda temuriylar davlati, XVI – XVIII asrlar 1 - yarmida Buxoro xonligi, 18 - asr ikkinchi yarmidan 1866 yilgacha Buxoro amirligiga tobe bo'lgan. Shahar bir necha marta inqirozga uchrab, yana qayta tiklangan. XVI – XVII asrlarda aholi hozirgi eski bozordagi O'roteppaga ko'chgan. XIX asr 60 - yillarida u ham xarobaga aylangan. Keyinchalik yana tiklangan. XIX asr ikkinchi yarmidan Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan. Jizzaxda tegirmon, juvozxona, temirchilik ustaxonalari, kulolchilik korxonalari va boshqalar ishlab turgan. Shahar XVI – XIX asrlarda ko'pgina tarixiy voqealarning guvohi bo'lgan. 1571 yilda Abdullaxonning Dashti qipchoq, xoni Boboxon va Toshkent hokimi Darveshxon bilan Jizzaxdagi to'qnashuvi shaharga ko'p talafot yetkazgan. 1866 yil 12-18 oktyabrda Jizzax qal'asi rus bosqinchilari tomonidan to'pga tutilib,

vayronaga aylantirilgan. 1916 yildagi Jizzax qo'zg'olonida shahar rus mustamlakachilari tomonidan yana vayron qilinib, aholi shafqatsiz qirilgan.

Viloyatdagi ko'pgina qadimiy va o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan. O'rta asrlarga oid ko'pgina qal'a-qurg'on va karvonsaroylar tepa va qo'rg'on (Kultepa, Oqtepa, Rabot, Qo'g'ontepa, Xonimqo'rg'on, Kaliyatepa) kabi nomlar bilan ataladi. Bularning soni 100 dan ortiq Jizzax va G'allaorol tumanlari hududidagi Takalisoydagi qoyatoshlarda ibtidoiy chorvachilik, ovchilik davriga oid mingdan ortiq, rasm, Baxmal, G'allaorol, Jizzax tumanlarida juda ko'p yer osti yo'llari saqlangan. 1956 yilda Baxmal tumani hududidan Budda ibodatxonasi qoldiqlari topilgan. Parpiota, Malik Girqushoq, Avliyoi Serob, Nuriddin masjidlarining qoldiqlari saqlangan. Forish tumanida qadimiy «Band» to'g'oni qoldig'i hozir ham mavjud. Jizzax tumanida Uzunota qabri mavjud.

2.2. VILOYATDA TURIZMNING MOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlarida katta turistik salohiyatga ega. Samarkand, Buxoro, Xiva shaharlari, BMT qoshidagi YuNESKO ning butun dunyo tarixiy va madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Mamlakatimizda faqatgina tarixiy, madaniy, me'moriy, arxeologik, ahamiyatga ega bo'lgan turistlarni jalb qilish mumkin bo'lgan ob'ektlar soni 7,0 mingdan ziyodni tashkil qiladi. Ulardan 545 tasi me'moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at, 5500 tasi arxeologik obidalaridir. Ulardan turistik ob'ekt sifatida qamrab olinganlari atigi 140 ta Bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2,0 foizni tashkil qiladi, xolos. Qolgan turistik ob'ektlar, qimmatli obidalar haqida reklama ham, aniq ma'lumotlar ham yetarli emas. Demak, ko'rinib turibdiki, hali bu borada ancha ishlarni amalga oshirish lozimga o'xshaydi. Bunda tarixchi, arxeolog, qadimshunos kabi olimlarning ham xizmatlari yetarlicha bo'lishi lozim.

To'g'ri, hozirgi kunda mamlakatimizdagi turistik ob'ektlarning 200 tasida restovratsiya ishlari ketmoqda, 500 tasi esa qayta ta'mirlash va restovratsiyaga muhtoj.

Bu ishlar uchun ham davlat byudjetidan milliardlab mablag' ajratilmokda. Lekin bu soha faqat byudjetga ko'z tikib qolishi mumkin emas. U o'zini - o'zi mablag' bilan ta'minlash bilan birga, qattiq valyuta va naxd pul tushumini ko'paytiradigan sohaga ham aylanmog'i lozim.


Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pgina mamlakatlarda restovratsiya (qayta tiklash) jarayoni ham turistik ob'ekt sifatida foydalaniladi. Bunda ushbu ob'ektning asl holli loyihasi, bugungi ahvoli, qayta tiklash jarayoni va qanday bo'lish kerakligi ko'rsatiladi. Albatta bu holatlar tarixiy ob'ektlar uchun muhim hisoblanadi. Bu esa turistlarni o'zlariga jalb qilishi tabiiy.

O'zbekistonning turistik salohiyati katta ekanligi bilan birga, ularning ayrim shaharlari o'ta diqqatga sazovordir. Masalan, turistlarning ko'rishi mumkin bo'lgan ob'ektlar soni bo'yicha Xiva shahri birinchi o'rinda turadi.

Ushbu mavjud turistik ob'ektlardan tashqari yana bir qancha ob'ektlarni barpo qilish mumkin.

Albatta yoz fasllarida shu daralarda odamlar juda gavjum bo'ladi. Lekin bular o'z ixtiyori bilan borgan dam oluvchilardir. Tashkiliy tarzda bu tog' manzaralariga sayohatlar uyushtirish hamon yo'lga qo'yilmagan. Bunday ob'ektlar Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin, Forish tumanlarida mavjuddir. Gap ularni ishga solib, aholi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun foydalanishda, Jizzax viloyatida ham tashrif buyuruvchi turistlar soni yildan-yilga oshmoqda (1-rasm). Ammo bu ko'rsatgichlar ham turistik salohiyatga nisbatan ancha kam ekanligini diagramma orqali anglash mumkin.

Mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda sharqona bozorning rivojlanganligidadir. Bu ob'ektlar ham ko'p jihatdan o'zimizga xos bo'lib, boshqa hududdan kelgan turistlarni qiziqtirishi tabiiy. Bu joylar turistlarning tomoshasi uchun tayyor joylardir, faqat ularni turistik marshrutga kiritib tashkil qilishda.



1-rasm. 2006-2010 yillarda Jizzax viloyatida xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish sig'imi (ming kishi xis.)

Bozorlarni turistik ob'ektlarga kiritilishi ikki jihatdan foyda. Birinchidan, turistlarga o'zimizning boy ne'matlarimizni ko'rsatish imkoniyati tug'lsa, ikkinchidan, sharq shirinliklarini ootish imkoniyati ham tug'iladi va xorijiy valyuta tushumini ta'minlaydi. Bu uchun har bir turistik ob'ektga kiritilgan bozorning bevosita ko'rinarli joyida pul almashtirish shaxobchalarini ham tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bizda turistlarga ko'rsatiladigan servis xizmati juda past darajada. Birgina misol, ayrim mutaxassislarning tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonga kelgan turistlarning 60 foizi bu yeri faqat servis xizmatining pastligi evaziga qaytib kelmasligini bildirgan. Bu ko'rsatkich ham bizda servis xizmatini yaxshilash uchun juda ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligidan dalolat berib turibdi. Bu yo'nalish bo'yicha birinchi galda kadrlar masalasini hal qilish lozim. Albatta bu bo'yicha ayrim ishlar qilindi.

Mamlakatimizda 300 dan ziyod kurortlar, 40 dan ziyod sihatgohlar, yuzlab dam olish uylari mavjud. Ammo bu ob'ektlarning aksariyati turizm sohasiga jalb qilinmagan. Birok, juda ko'p kurortlarimiz ajoyib xushmanzara joylarda joylashgani

bilan birga ko'pgina kasalliklarga davo hamdir. Lekin ta'kidlangandek, reklamaning yaxshi yo'lga quyilmaganligi, turistlarning ushbu joylarga umuman jalb qilinmaganligi birorta kurort ob'ektlarini xalqaro maydonga, dam olish zonasiga aylantira olgan emasmiz. Bu ham hali ancha ishlarni amalga oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Bizning mamlakatimizga turistik yul bilan kelish istagini bildirgan xorijliklarning soni 10,0 mln. kishini tashkil kiladi. Bu juda katta imkoniyat, endigi vazifa ana shu imkoniyatdan oqilona foydalanishda.

O'zbekistonning yana bir muhim xususiyati shundaki, undan «Buyuk ipak yo'li» o'tgan bo'lib, uning markazi ham shu hudud hisoblanadi. Agar buni tiklab «Buyuk ipak yuli bo'ylab» degan bitta marshrut tashkil qilinsa, bu ham turistlarni jalb qiladigan katta imkoniyat hisoblanadi.

Xullas, turizmni rivojlantirish uchun mamlakatimiz salohiyati beqiyos. Undan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, turizm industriyasini qaror toptirish mamlakatimizning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydigan asosiy sohalardan biriga aylanishi tabiiy.

Shuningdek viloyatning turistik salohiyati shu qadar yuksak va rang-barangki, undan faqat shu maqsad uchun oqilona foydalanish lozim. Chunki, viloyatda turizmni rivojlantirish uchun yo'nalishlar tomosha va o'rganadigan ob'ektlar ko'lamini juda keng. Bundan turistik dam olishdan tortib piyoda sayohatgacha, oddiy ko'zdan kechirishdan tortib ilmiy ekspeditsiyagacha bo'lgan jarayonlarni tashkil qilish mumkin.

Turizm bu eng qadimgi sohalardan biri. Ammo u jahonda amaliyot sifatida shakllangan. Juda ko'pgina mamlakatlarda bu soha XXI asrga kelib eng yetakchi sohalardan biriga aylandi. Ammo viloyatda hali bu yetakchi soha bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsada, talab darajasiga ko'tarilgan emas. Bunga juda ko'p omillar sabab bo'lmokda. Ularning eng muhimlaridan biri turizm sohasining nazariyasi va uslubiyoti o'zimizga mos tarzda ishlab chiqilmaganligidadir. Lekin turizm shunday nozik sohaki, uni ko'r-ko'rona rivojlantirib bo'lmaydi. Bu soha juda katta e'tiborni talab qiladigan sohadir. Chunki, bu jarayo'n o'z-o'zidan sodir bo'lib qolmaydi, negaki, bu boshqa davlat odamlarini jalb qilish bilan bog'liq.

Biz viloyat hududidagi rekratsion-turistik obektlari orqali dunyo turizm bozoriga kirib borishimiz lozim. Buning uchun uni turistlarga ko'rsata bilish va shu jarayondan tegishli foyda olish uchun turizm bozorida ham mavjud erkin raqobatga bardoshli holatlarni yaratish kerakki, qaysiki bu sohaga qo'l urgan tadbirkor ish boshlab ulgurmasdan sinmasin. Shu uchun turizmni rivojlantirish o'z-o'zidan bo'lmasligini inobatga olib, uni yuksaltirish choralari ko'rish lozim. Bu bevosita turizm industriyasini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bu esa davlatdan yoki boshqa shaxslardan salmoqli mablag'ni, kattagina investitsiyani talab qiladi. Bu sohaga atalgan mablag' ham topilishi mumkin, lekin uni yuritadigan kadr bo'lmasa hammasi bir pul. Ushbu sohaga bilimdon, yetakchi mutaxassislar juda zarurdir.

Turizm bir qancha mamlakatlar uchun asosiy iqtisodiy tarmoq darajasiga ko'tarilgan. Tailand, Malayziya, Kipr kabi mamlakatlar iqtisodiyotida turizm asosiy sohaga aylanib ulgurgan. Dunyoning Parij, London, Rim, Nyu-York, Moskva, Samarqand, Buxoro kabi ko'pgina yirik shaharlarini bugungi kunda turistlarsiz tasavvur qilish qiyin. Turizm hozir nafaqat Yevropa, balki Amerika, Osiyo, Afrika, Avstraliya kabi dunyoning barcha burchaklariga qadar yoyilib ulgurdi. Chunki bunday vaziyatga ob'ektiv sharoit yaratildi. Tezyurar yer, suv va havo transportining dunyo bo'ylab qatnovining yo'lga qo'yilishi turizmning bunday keng qo'lamda taraqqiy etishi uchun tegishli sharoit yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Jizzax viloyatida turizmning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan eng muhim omillarga yetarli darajada moddiy-texnika asosini (MTA) yaratish kiradi. Turizmning moddiy-texnika asosiga quyidagilarni kiritish mumkin: turistik tashkilotlar, firmalar (turistik operatorlar, turistik agentlar kabi);

- *mehmonxonalar;*
- *turistik bazalar;*
- *turistlarni ovqatlantirish shaxobchalari;*
- *turistlarga savdo xizmatini ko'rsatish shaxobchalari;*
- *turistlarga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari;*
- *turistlarga avtomobil va botika maqsadlantiruvchi transport vositalarining mavjudligi;*

- *turistlarga zarur bo'lgan jihozlar prokatni tashkil qiluvchi prokat;*
- *punktlari;*
- *turistik yullanmalarni sotish shaxobchalari;*
- *turistik klublar, stantsiyalar;*
- *turistlarga turistik ob'ektlarni tushuntirib beradigan bir qancha tillarni biladigan gitlar kabilar.*

Hozirgi paytda shu ko'rsatilgan MTA ning barcha elementlari yuqori darajada tashkil bo'lsagina, bunday mamlakat turistik bozorda o'z o'rnini topishi mumkin.

Bu ko'rsatilganlardan tashqari Jizzax viloyatida turizmning rivojlanishi uchun shu hududning tabiati, iqlimi, landshafti, rel'efi ham qulay bo'lishi lozim. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *tabiati go'zal, iqlimi mu'tadil, sayr qilishi uchun hududi yetarli bo'lishi lozim;*
- *shu yerda qattiq issiq yoki qattiq sovuq bo'lmasligi kerak;*
- *turistlar boradigan, dam oladigan joy turli yirtqich, yovvoyi hayvonlardan, chaqadigan (ilon, chayon, qurrakurt kabi) hashoratlardan xoli bo'lishi lozim;*
- *turistlar uchun zilzila, to'fon, suv toshqini, qor kuchdisi, jala kabi tabiiy ofatlar bo'lmaydigan joy ajratilishi ham maqsadga muvofiqdir;*
- *turistlar qo'nim topadigan joy zaharli o'tlar, mevalar, ifloslangan atrof-muhitdan ham xoli bo'lmog'i lozim.*

Bu omillar ham Jizzax viloyatida turizmning rivojlanishi uchun asosiy sabablardan biridir. Bulardan tashqari turizmni rivojlantiraman degan mamlakat, eng avvalo, shu joyga transport bilan yetkazish, u yerda ovqatlanishi, yashashini, xavfsizligini ta'minlash kabi bir qancha choralarni ko'rish kerak. Jizzax viloyatida diqqatga sazovor, turistlarni jalb qiladigan juda ko'p tog'li hududlar deyarli barcha viloyatlarimizda mavjud. Ammo ularda ommaviy tarzda turizmni tashkil qilish yo'lga qo'yilmagan. Bu sohada turizm industriyasi oqsoq holda.

Tog' va tabiatning go'zalligi tabiiy holat. Ular hech qanday mablag' sarf qilinmasdan turistik ob'ekt sifatida mavjuddir. Undan faqat daromad qilish maqsadida foydalanishlari lozim. Lekin bu sohada hali qilinadigan ishlar ko'pligini har bir o'quvchi e'tirof etsa kerak, deb o'ylaymiz.

Shunday qilib ta'kidlash joizki, turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va undan kelib chiqadigan muammolar juda ko'p. Ularning ayrimlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *viloyatda turizm bo'yicha nazariy va uslubiy bilimning yetarli emasligi;*
- *turizm industriyasining talab darajada shakllanmaganligi;*
- *turizmning iqtisodiy sohaga to'liq aylana olmayotganligi;*
- *turizm infratuzilmasining jahon andozalari darajasida tashkil qilinmaganligi;*
- *turizmning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika asosining yetarli emasligi;*
- *turistik servisning yuqori darajada tashkil qilinmaganligi;*
- *turizmni rivojlantirishda ayrim qusurlarning butunlay barham topmaganligi;*
- *turizm sohasi bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi.*

Ko'rinib turibdiki, Jizzax viloyatida kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun unga mansub kadrlar salohiyatini shakllantirishdan tartib, uning moddiy-texnik asosini yaratish va u soha bo'yicha nazariy-uslubiy bilimlarni shakllantirishgacha bo'lgan bosqichni o'tash lozim deb hisoblaymiz.

2.3. VILOYATDA TURIZMNI TASHKIL ETISHDA TURISTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Mintaqalarda turizmni tashkil etish va rivojlantirishda birlamchi turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash muhim masaladir. Safarga tayyorlanishda yo'nalish rejasini tuzish va uni tasdiqlash, turizm davomida suhbat, lektsiyalar o'tkazish, topografik belgilar bilan izchil tanishish, chizmalar tuzishni o'rganish, turizmning texnik turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish rejalarini tuzish, o'quvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kerakli jihozlarni taxt qilish, oziq-ovqatlar uchun harajatlar tuzish kabi muhim ishlarni avvaldan ishlab chiqish talab etiladi.

Turizm sayohatlarning taxminiy rejasini mutaxassislar quyidagicha belgilaydi¹:

1. Turizmning taxminiy rejasini aniqlash.
2. Qatnashchilar gruppasini aniqlash va tuzish.
3. Qaysi joylarda bo'lishni belgilash.
4. Sayohat qilinadigan joylar to'g'risida axborot to'plash.
5. Yo'nalishni ishlab chiqish.
6. Sayohat uchun qancha vaqt ketishini hisoblash.
7. Kalendar reja tuzish.
8. Ovqatlanish tarkibini va sharoitini belgilash.
9. Sayohat uchun sarf bo'ladigan harajatlarni tuzish.

Toifalarga bo'lgan sayohatlarga tayyorlanishda har bir qatnashchiga alohida vazifa beriladi.

1. Guruh boshlig'i.
2. Ma'naviy axloqiy tarbiya rahbari.
3. Oziq-ovqat bo'yicha xo'jalik mudiri.
4. Turizm jihozlar uchun javobgar shaxs.
5. Kotib.
6. Ta'mirlash ishlari bo'yicha usta.
7. Tibbiyot hodimi.
8. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotchisi.
9. Muhibir.
10. Sur'atchi.
11. Komendant (dam olish va tunash paytlarida tayinlanadi).
12. Guruh rahbari.

Ta'lim muassasalarida turizmlarni tashkil qilishning turli shakl va uslublari mavjud. Talabalarining ko'p kunlik sayohatlarini tashkil qilish tartibi quyidagicha:

¹ Mirzakarimov H. Turizm. Ma'ruzalar matni. ADU – 2009 y. 36 b.

1. O'quv yili boshida sayohat yo'nalishni aniqlash va umumiy yig'ilishda tasdiqlash.
2. Sayohatga to'garakning faol ishtioqchilari va jamoatchi o'quvchilarni jalb qilish.
3. Yil davomida ko'p kunlik sayohat uchun kerakli turizm jihozlarni tayyorlash.
4. Turizm bazalar va bolalar turizm markazlarining tajribali xodimlaridan tegishli maslahatlar olish.
5. Ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlardan qidiruv ishlari bo'yicha vazifa olish.
6. Turistlarning jismoniy tayyorgarligini yil davomida nazorat qilib borish.
7. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, o'tish xavfli bo'lgan joylarda o'zaro yordam shartlari, qoidalarini o'rganib borish.

Jizzax viloyatida tog'li hududlarda sayohat juda xavfli bo'lishi mumkin. Sababi balandlik yuqori, qiyaliklar duch keladi, so'qmoqlarda yurish qiyin. Toqqa sayohatda bosh kiyim qalpoq, kepka kiyish zarur, balandlikka chiqqach sovuqroq bo'ladi. Quyoshdan to'silishi uchun dokadan niqob tikiladi, ko'zoynak, jun kiyim, shim yoki shoyi kiyinadi. Barcha liboslar, oyoq kiyimlar qulay bo'lishi shart.

Tog'li sayohatga maxsus asboblarni olinadi. Toshni o'yadigan bolg'acha, uchli asboblarni olish zarur. Ortiqcha yuk olinmaydi uning og'irligi xalal beradi. Qishki tog'li joylarga sayohatda ham alohida qoidaga rioya qilish kerak. Sirpanmaydigan poyabzal kiyiladi. Sayyoh yo'l boshchilik qilayotib muzlarni cho'qib, yorib ketadi. Qiyaliklarda maxsus moslamalar yordamida harakat qilinadi. Arqonlar mahkam tortib bog'lanadi.

Alpenshtok-bu metal uchi bor yog'och moslama. U sayyohni yelkasida turadi. Uzun bo'lmasligi kerak, bu daryolar kechishda yordam beradi. Unga to'rvalar, oyoq kiyimlar ilib orqasiga osib oladi. Arqonlar yangi, yaroqli bo'lishi kerak. CHodirlarni maxsus xaltalarda olib yurish kerak. Maxsus ilmoqlar 3 turli bo'ladi, vertikal, gorizontal va universal. Uni maxsus ko'rinishi bor, yo'g'on, uzun, yupqa

va xokazo. Qoya yoruvchi bolg'acha shu ilmoqlarni qoqish uchun ishlatiladi. Karabin 2 ta arqonni birlashtiruvchi ilmoq xisoblanadi.

Harakatlanish texnikasini bilsagina sayohatchi tejamkorlik bilan harakat qiladi. Qiyalik va kesishgan tog' yon bag'irlarida yurganda tizzalarni sal bukib yurish kerak. Yurganda oyoqni erkin tashlab, tovon bilan oyoq uchini bir xil tashlash lozim. Yuqoridan tushayotib oyoq uchida tushib darhol tovonni qo'yish kerak. Tovuq qadamga tashlanib ko'tarilayotganda muskullarni bo'sh xolda qo'ying. Shunday qadam bosingki tovon va panjangiz, tizzangiz va oyoq muskullaringiz toliqmasin. To'g'ri yurish maromini noto'g'ri bajarsangiz yurak tez charchaydi. Oyoqlar bir xilda harakat qilsin. Har bir insonda bo'yiga, kuchiga, og'irligiga, to'rva og'irligiga yana joy relfi uzunligiga qadam bosish chastotasiga qaramay individual qobiliyati bor. Ba'zilar harakter jihatdan epchil, yengil bo'ladi. Ba'zilar esa o'ta og'ir, beso'naqay bo'ladi. Agar epchil bo'lib harakat chastotasi yuqori bo'lsa sayohat juda zo'r davom etadi.

Sayohat va sayr davomida odam o'zining ratsional harakat ritmini doimiy, odatiy qilish lozim, bu mashg'ulotlar maqsadidir. Mashq qilgan sayyoh shuning uchun og'ir sayohat vaqtida ham ritmik holatni, organizmni chidamliligi bilan farq qiladi. Balandlikda ham, tezlik oshganda ham qadami tezlashadi. Tezlik oshsa yo'l ozayadi. Yuk og'irligi tezlikni belgilaydi. Yuk og'ir bo'lsa tezlik sustlashadi. Yengil bo'lishi aksi, demak yuk tezlikni nazoratida. Tezlik shunday bo'lishi kerakki yurak faoliyati buzilmasin. Yaxshi mashq qilgan sayohatchi yurak urishlari o'z xoliga 5-6 minutda dam olishdan so'ng tushish kerak. Mashq qilmaganini esa dam olib bo'lgach 8-10 minutdan so'ng o'z xoliga keladi. Bunday natijaga erishmoqchi bo'lsangiz, nafas olish tezligi bir xil bo'lsin. Ba'zida katta to'rvada yurilsa qadam kichrayadi. 3000-4000 m balandlikda yuk og'irligi uchun harakat tezligi buziladi. Chunki atmosfera bosimi pasayadi. Kislorod kamayadi, bunday katta tepalikda tez-tez to'xtab dam olinadi. Yurak xovliqib ketsa, yukni qo'yib ozgina yelkalarga dam berish kerak.

Harakat texnikasi qoidalari qoyalar va tepaliklarda ko'tarilayotib oyoq tizzasini bukamiz, yelkaga darhol yukni qo'yamiz, yaxshi ushlab yurish uchun

qoyalarni botinka poshnasi. Tekis tepalikda oyoqni bukmay, tanangiz bilan tashlang. Qadamni kengroq tashlab, o'zingizni orqaga tashlab yuring. O'ng'ir-cho'ng'ir joylarda o'rtacha oddiy xolda yuravering. Sakrab-sakrab yurish mumkin.

Botqoq bu uzoq suv bosib qolgan joydir. Bunday joylarda yurmaslik yaxshi. Lekin sayohat chog'ida bunday joylar ham uchraydi. Tepasi yerda turadi, bossangiz tortib ketishi bor. Bunday joydan o'taturib uzun yog'och va maxsus rezina etik kiyiladi. Balchiqdan o'tish uchun hamma bormaydi. Yengil, epchil sayyoh yuradi. Agar yiqilib tushsa, uzun yog'ochni botmas qilib, ilinib tortiladi. Botmas qalinroq bo'lishi kerak. Ba'zida butazorlardan, changalzorlardan o'tiladi, unda yengil libosda xamda boshyalang yurmang. Maxsus kiyim va anjomlarda bo'ling. Doimo qo'lingizda uzun yog'och bo'lsin.

Shunday sayohatlarda o'tloq, tepalik, o'tkir qiyaliklar duch keladi. Bu sayohatchilarga bir oz noqulayliklar keltiradi. O'tloqlar qiya bo'lganda yurish tezligini ozgina keskinlashtiradi. Chiqayotib tizzalar bukiladi, panjalar bir oz oldinga qo'yiladi, qadamlar kichrayadi. Sheriklarni orqasida yo'lboshchi tajribali sayyoh yuradi. Yuqoriga chiqayotib qo'llar ham harakatlanadi.

Eng oddiy sayohat ham xavfdan xoli bo'lmaydi. Har qanday xavf vaqtida oldi olinsa zararsizdir. Falokat holatlari guruh a'zolarini beparvo, beg'amligidan kelib chiqadi. Shuning uchun sayyoh sayohat chog'ida ziyrak, aqlli bo'lishi kerak. Yengil yelpi ish tutib bo'lmaydi. Sayohat aniq va mukammal asosda amalga oshirilishi kerak. Yo'lboshlovchi ham, guruh a'zolari ham epchil, xamfikir, ma'suliyatli bo'lishi kerak. Dam olish paytlarida guruh yig'ilishlari o'tkaziladi. Kamchiliklar, aybdorlarga qoidalar atroflicha tushuntiriladi va darhol mashg'ulot o'tkaziladi. SHeriklar bir-birlarini xurmat qilishi, tushunishi, rahbarga bo'ysunish zarur. Bir-birlarini qo'llab turish, maslahat berish tajribali sayohatchini vazifasi. Xavfsizlik chora tadbirlari sayohatgacha o'tiladi. Lekin ba'zida sayohat davomida ham takroran joy ahvoliga ko'ra tushuntiriladi.

Sharsharalar sayohatda xavf tug'diradi. Bu suv to'plami sayohatchilar uchun ba'zida notanish xisoblanadi. Cho'milish uchun borib xavfni sezmay qolish hech gap emas. Shuning uchun guruh a'zolari ajralib yolg'iz cho'milishi ta'qiqlanadi.

Cho'milishga borib kelgach, yolg'iz sayohat qilib bo'lgach guruh tez-tez sanoqdan o'tadi. Sayohat boshlig'ida ro'yxat doimo tekshiriladi. Mashq tugashiga cho'milish kerak emas. Ayniqsa muzdek daryo suvi, terlagan chog'ida zararlidir. Har hil ish qurollari va bolta bilan ishlashni sayohatchilar bilish kerak. O'tkir tig'li qurollar ochiq turmasin, ular niqoblarda, suv tegmaydigan joyda saqlanadi. Qurolni xech qachon xazil qilib ham odamga o'qtalmaydi. Ovdan so'ng qurolni darhol bo'shatib va bekitib qo'yish zarur. Issiq qozon va choynakni qo'lgop bilan ushlash kerak. Gulhan o'rtada yoqilishi kerak. Tabiat ofatlaridan doimo saqlanishi kerak. Tog' ko'chishi, qor ko'chishi, kuchli shamol, yomg'ir, qor chog'ida safar bir oz muddat to'xtatiladi. Yoki ehtiyotkorlik, xavfsizlik choralari bilan o'tkaziladi.

Suv toshqini eng yomon ofatlardan. Bunday xolatda guruh eng yuqori qiyalikka chiqishi kerak.

Ko'chki inson hayoti uchun xavfli Tuman tog'larda yurish sharoitini og'irlashtiradi. Ko'z bilan hech narsa ko'rinmaydi. Tuman chog'ida baland qiyalikka chiqilmaydi. Agar tepalik qoyalarda bo'lsangiz harakatni to'xtatib turing yoki sekin harakat qiling.

Chaqmoq tog'da juda xavfli. Mamaqaldiroq paytida yurish to'xtatiladi. Chaqmoq chaqib turganda qurigan daraxt, butalar oldidan qoching. Yugurish ham mumkin emas, chaqmoq urib yuborishi mumkin. Chaqmoq paytida ochiq, yalang joyda turmang.

Kuchli shamol chog'ida qoyalarda, ochiq burilishlarda turilmaydi, chunki sayyoh muvozanatni yo'qotib pastga qulashi mumkin. Kuchli shamol balandlikda kuchayib bo'ronga aylanadi. Mo'ljalni yo'qotib, oyoq, qo'llaringiz harakat qilolmay qoladi. O'rmonlardagi shamolda esa chodirlarning ustiga daraxt tushish xavfini yo'qotadi.

Qorong'ilik faqatgina harakatni emas tog'da kuchli xavfni, botqoq va o'rmonda esa yomon falokatni keltirib chiqaradi. Tog'da pastga qulash, o'rmonda sirpanib tirqishlarga qisilib qolish, daryoga tushib oqib ketish holatini keltiradi. Agar kunduzi atrof ko'rilgan bo'lsa, kechasi qorong'ida yurilmagan ma'qul.

Doimo fonar-chiroq olib yurish tavsiya etiladi. Har qanday holatda sayohatchi jismoniy tayyor bo'lishi kerak.

Sayohatda qutqaruv ishlari. Sayohatchi doim yodda tutishi kerakki, doimo sayohatda xavf yonma-yon bo'ladi. Mashg'ulotlarda bunga alohida tayyorgarlik o'tiladi. Qutqaruvchilar birinchi yordamni qanday ko'rsatishni bilish kerak. SHikastlangan odamni qanday qutqarish lozim. Har bir tog'li, o'rmon va dasht muzligida qutqaruvchi bo'linmalar, markazlar bo'ladi. Sayohatchilar jabrlanuvchini qutqarib, birinchi yordamni ko'rsatib keyin shifokorga murojat qiladi. Unga qadar qutqaruvchi sayyohlar yordam beradilar.

Qulab tushgan sayyohlarni imkoni boricha jarlikdan tushib ketgan joydan olib chiqiladi. buning uchun sayyohlarda yetarlicha moslama va qurol bo'ladi. Xushsiz xolatda bo'lsa, xushiga keltirish chorasi ko'riladi. Transportda markazlarga olib boriladi. Agar transport bo'lmasa daraxt shoxlaridan, chang'idan foydalanish mumkin. Arg'amchidan foydalanganda uni qanday bog'lash, tugishni o'rganish zarur.

Qorli tog'larda jaraohatlanish yuz berganda bir kishimi, ikki kishimi kasalni darxol panaga olib ketiladi. Maxsus "chana" yog'ochdan, daraxt yoki butalardan arqon orqali yasaladi. Kasal unga maxkam qilib bog'lanadi. Tugunlar boylanish usullari juda ko'p. Halqalar orqali boylash mumkin. Yog'ochlar ham bir-biriga mustahkam qilib boylanadi. Bemorni ahvolidan tez-tez xabardor bo'lib turiladi. O'tloqli, kengliklardagi sayohatda shunday holat bo'lsa maxsus qutqaruvchi to'rvadan foydalanish mumkin. Bemorni asta ko'tarib, to'rvaga o'tirgizib mahkam bog'laydi va maxsus yog'ochga o'tirgizib 2 kishi ko'taradi. Orqasiga osilgan bemor yog'ochga to'rva bilan o'tirib oladi. To'rva tagida yog'och o'tirishga mo'ljallangan bo'ladi. Jabrlanuvchini yog'och bo'lmaganda orqalab, ko'tarib oladi.

Qutqarish va bemorni ko'tarish uchun arqonlardan, yog'ochlardan foydalanib maxsus zambarlar tayyorlanadi. 3 metrli yog'och va arqondan, maxsus qop va to'rvadan, uzunligi 60-70 sm yog'ochdan yoki muz yoruvchi bolg'achadan, qop va to'rvani yog'ochlarga mahkam bog'lanadi. Yonboshidan ko'tarish uchun ushlagich

qo'yiladi. Oldida yuruvchiga ushlash uchun 45-50 sm, orqadagiga kamida 65-70 sm joy qoldiriladi. Bemor o'tirib olib ikki tomondan qutqaruvchilar yelkasiga qo'llarini qo'yadi. Xushsiz bo'lsa yotqiziladi. Yotqizilganda zambarga mahkamlab bog'lanadi. Chang'idan ham zambar qilinadi. Chang'ilarga sayyohlar kastyumi yenglari kiydiriladi. Tugmasi solinib, zambar xosil qilinadi. Bu holat arqon topilguncha qilinadi. Albatta arqon bilan ham bunday zambar quriladi. Daraxt shoxlaridan zambar tayyorlanganda 3 ta uzun yog'och shoxlari olinadi. Daraxt shoxidagi barglar, shox shabbalar olinmaydi, chunki sirg'anish tempi bir xil bo'ladi. 2-shox o'rtasiga 3-shox ko'ndalang yog'och qo'yib bog'lanadi. 3-shox mahkam qilib bog'lanadi. O'rtadagi yog'och bir oz 2-yog'ochga nisbatan kaltaroq qilinadi, chunki qutqaruvchi oraga kirib ko'taradi. Ko'ndalang qilib bog'langan yog'ochlar daraxt shoxlariga yaxshilab bog'lanib krovat xosil qilinadi. Bemor unga yotkizilib bog'lanadi va 2-qutqaruvchi aravani sudrab ketadi.

Tog'larda, qoyalarda qutqaruvchilar ma'suliyati ortadi. Qutqaruvchi zambarlar faqat arqondan quriladi. Uzun arqonga, arqondan zambar to'qiladi. Maxsus metal xalqachalar o'tkaziladi. Setka qopchaga bog'langandek, shikastlangan odam maxsus savatga yotqizib bog'lanadi. Uzun arqondan qutqaruvchilar har ikki tomonda turib, biri yuborsa 2 si tortib olinadi. Sekin asta siljib, to'r qopdagi bemor oldinga harakatlanadi. Shu tariqa qoyadan o'tkaziladi. Yuqoridan tushish uchun esa qutquruvchilar maxsus moslama, qurilmalardan foydalaniladi. buning uchun metaldan halqalar, uchli qoqiladigan mixlardan, arqondan va qattiq uradigan bolg'alardan foydalanadi. Balandlik juda o'tkir bo'lsa, qutqarish ishlari og'ir bo'ladi. Bellarni orqalab, arqonga bog'lab, asta arqonlarga osilib tushiladi. Yuqorida va pastda yordamni, arqonlarni yordamchi qutqaruvchilar ushlab, nazorat qilib turiladi. Baland qirliklarda yurish uchun joy yo'q bo'lib qutqarish qiyin kechadi. Qutqarish chog'ida ehtiyot bo'lib harakat qilish kerak. Umuman olganda viloyatda ekologik turizmni tashkil etishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

III BOB. VILOYATNING TURISTIK-REKREATSIYA SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

3.1. VILOYATNING MADANIY-TARIXIY TURISTIK RESURSLARI SALOHIYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jizzax tarixining eng qadimgi saxifalari haqida gap ketganda, albatta jahon tarixiga daxldor sanalmish «*Sayxonsoy qoyatoshlari*» dagi suratlarni (4,5 ming yil avval), eng qadimgi odamlar yashaganligi taxmin etilayotgan «*Peshag'or G'opi*» madaniy qatlamlarini, ikki ming - ikki yarim ming yillik tarixga ega «*Mozorsoy yodgorliklari*»ni, «*Jomonjar yer osti ehromlari*»ni, qadimgi manbalarda tilga olingan Gaza, Harakana, Zomin, Sobot, Mik, Marsmanda, undanda qadimgiroq bo'lmish Xitoy solnomalarida tilga olingan «Echa shahri» qoldiqlari bo'lmish qadimgi qal'alar va shaharlar o'rinlarini faxr bilan tilga olamiz.

Viloyat hududda ming yillardan beri aziz tutib kelingan **“Temir darboza”, “Sa’d ibn Abi Vaqqos”, “Parpi ota”, “Xo’jamushkent ota”, “Novqa ota”, “O’smat ota”, “Sayid Mir Xalililloh ota”, “Xo’jabog’oti ota”** kabi ko’plab mo’tabar ziyorat manzillari va qadamjolar borki, bugungi mustaqillik yillari sharofatidan yanada obod va ko’rkam manzillarga aylandi, o’z salobati bilan yurtimiz saodatiga shukuh bag’ishlab turibdi.

O’zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash hamda viloyat hududidagi tarixiy, madaniy va me’moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish choralari ko’rish va yodgorliklarning davlat muhofazasini ta’minlash maqsadida qator tadbiriy choralar qurilmoqda.

Bu ishlar Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli "Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida" gi qarori va "Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo’yicha Idoralararo komissiya to’g’risidagi Nizom", "O’zbekiston Respublikasi madaniy meros ob’ektlari davlat kadastrini yuritish to’g’risidagi Nizom" va

"Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risidagi Nizom"lar, Vazirlar Mahkamasining «Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va qadamjolarida aholiga hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash choralari to'g'risida»gi majlisi bayonnomasi talablarini bajarish maqsadlariga qaratilgan.

Viloyatda 2008 yilning 10 iyun holatiga jami 372 ta madaniy meros ob'ektlari, shundan 42 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 267 ta arxeologik manzilgohlar, 63 ta monumental yodgorliklar (haykallar, byustlar, xotira maydonlari) "Davlat muhofazasi ro'yxatlari"ga kiritilgan. Jizzax viloyatidagi diniy-ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrutlar ishlab chiqishda ushbu ziyoratgohlarning ziyorat qilish xususiyatlarini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani bajarish har bir ziyoratgohlarga ma'lum bir turistik oqimni hosil qilish uchun ham juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, viloyatdagi ziyoratchilarning qaysi ziyoratgohni ko'proq ziyorat qilishlarni aniqlash. Bu natijalar asosida viloyatda ichki turizm va xalqaro turizmga turistlar aynan tanlagan yoki tinlaydigan diniy-ziyoratgohlar ma'lum bo'ladi.

Mutaxassislar ma'lumoti bo'yicha asosiy madaniy-tarixiy turistik resurslarga quyidagilarni kiritish mumkin:

«Sa'd ibn Abu Vaqqos» ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh G'allaorol tumanining Avliyo qishlog'ida joylashgan bo'lib, ikki bo'lakka bo'lingan. Yuqori qismi – ko'l buyi hududi shifobaxsh va muqaddas bo'loqlari, go'zal va so'lim go'shalari, ajoyib tabiati, betakror manzaralari bilan kishi dilini nurafshon aylasa, pastki bo'lagi ko'hna masjidi, hilxonasi bilan diqqatga sazovordir.

Masjid binosining XIX asrda Jizzaxlik ustalar - usta Komil, usta Qobil, usta Zuhur va usta Mirziyolar tomonidan sharqona uslublarda bunyod etilganligi manbalardan ma'lum. Ganjkorlik va masjid shiftidagi rango-rang chiroyli naqsh ishlari esa o'sha zamonlarda ustalar Mirzo Zoxid va usta Bobojonlar tomonidan mahorat bilan ishlangan bo'lib, bugungi kungacha ham o'z ohorini yo'qotmagan. «....Said ibn Abu Vaqqos Makka ashraflaridan birining o'qli, Muhammad

alayhissalomga payg'ambarlik vaxiyi kelgan paytda navqiron bir yigit bo'lib islom diniga kiradi va sarkardalik xislatlarini namoyon qiladi.

U hijratning 16 yili Xalifa Umar ibn Xattobning Eron va Mavoraunnahrga yuborgan qo'shiniga boshchi etib tayinlanadi.

Hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida o'tgan bir jangda yaralanib, sinchilori o'zilib to'shadi, xonaqox o'rniga qoni to'kiladi. Sarkardaning sinchilotani qishloqning shimol tomonidagi qabristonga ko'mishadi (bu yerda xonaqox bor), tabarruk zotning qoni tomgan ko'l bo'yiga yaqin joyda ham xonaqox bunyod etiladi. Bugun bu manzil juda go'zal manzara kasb etgan, viloyat hoqimligining e'tibori bilan, saxovatpesha, qalbi tarixiy qadriyatlarga hurmat bilan limmo-lim kishilarning xayru-ehsonlari evaziga ziyoratgoh binolari ta'mirlangan, ko'l tartibga keltirilib, ziyorat joylari obod etilganligini ko'rish mumkin. Ko'lda "muqaddas baliklar" ni - O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan qorabaliklarni ko'rish mumkin. Ziyoratgoh hududi 14, 2 gektarni tashkil etadi.

"Jondahar ota" ziyoratgohi. Forish tumanining G'orli Tarasha qishlog'ida Muhammad SHarif (Mavlono Grekushox) nomi bilan aziz tutilguvchi ikkita ziyorat manzili bor. Birinchisi, ul zoti bobaroqotning xonaqoxlari bo'lsa, ikkinchisi "Jondahar ota" - *"jonga darmon beruvchi"* ma'nosida ziyoratgohi hisoblanadi.

Garasha qishlog'ining nomi ham (Mavlono Grekushox) "tugunlarni yechuvchi" so'zidan olingan bo'lishi mumkin. Keyinchalik chashma atrofida ko'p ming kishilik kurton qal'a quriladi. Bu rivoyatlarga ko'ra XII asrga to'g'ri keladi.

CHashmaning suvi shifobaxm xususiyatlarga ega, masalan sariq kasalligiga, teridagi har xil dog'larni ketkizadi, qutirgan it qopganlar bu suvda cho'miladilar, har xil oshqozon-ichak xastaliklarida ham bu chashmaning suvini ichish koni foyda..."

Garashalik qishloq keksalari Umarxon bobo Ixtiyorov, Homid bobo Abdurahmonov, Rauf bobo Rashidov, Abdurahmon bobo Asrorov, Sulaymon bobo Tovboevlar tomonidan saqlab kelingan juda ko'hna arabiy imlodagi ikki hujjat 2001 yilda Madaniyat ishlari vazirligiga taqdim etilgan bo'lib, ular o'rganib chiqildi.

"O'smat ota" ziyoratgohi. O'zbekistonda mavjud avliyolar qabrlari, aziz qadamjolarining aksariyati islom dunyosiga mashhur kishilar, payg'ambarlar, aziz-avliyoyu anbiyolar, pirlar, xalifalar va shayxlarning nomi bilan mashhurroq. Bunday bo'lishiga tabiiy va tarixiy asoslar bor.

Baxmal tuman markazida, qo'rg'ontepa poyida so'lim go'sha «O'smat ota» - aslida «*O'smon ota*» ziyoratgohi bor. Xuddi Samarqanddagi Shohi Zinda rivoyatiga o'xshash hayratli afsona kezib yuradi. Bu odam kofirlardan qochib bir tutning ortiga o'tgan va kofirlardan qutilib qolgan ekan. Keyinchalik shu atroflarda yashagan va bu joylarni obod qilgan ekan...

Zamonlar o'tib e'tikodli xalq O'smon ota uchun ramziy qabr tiklab, kichikkina xonaqox quradi. (Usmat qishlog'ining nomi ham shu tarixiy maskan nomi bilan bog'liq, degan taxminlar yuradi. Lekin, O'smat tarixan avvalroq, eramizning boshlarida paydo bo'lganligini tarixiy asari, arxeologii materiallar tasdiqlaydi.)

Baxmallik yozuvchi Sayid Azim tarixchi olimlar-Olimjon Juraev va Jaloliddin Juraevlar fikriga tayanib Usmat ota qabrini usmatlik fiqhshunos olim, o'z davrining yirik qonunshunosi bo'lmish Abul Fath Muhammad ibn Abdulhamid Usmandiy as-Samarqandiy nomi bilan bog'laydi. (Abul Fath Usmandiy 1095 yilda tavallud topib 1158 yilda, 63 yoshida vafot etganligi ma'lum. Uning arab tilida bitilgan, bir necha jilddan iborat bo'lgan "Sharx al-Jomi' al-Kabir" asari bizgacha yetib kelgan.)

«Hazrati Bashir tarixi» kitobida yozilishicha Hazrati Bashir va ustod Usmoni Turkistoniylar Turkistonga Xoja Ahmad Yassaviyning ziyoratiga yalangoyok yo'l oladilar. Yo'lda ko'p kiyinchiliklar ko'radilar. Firorga (Avliyo qishlog'ning avvalgi nomi shunday bo'lsa extimol) yetganlarida bir uydin, «o'choqda ozroq oyog'imizni isitib olaylik», deya ijozat so'raydilar. Uy egasi «ozroq yog' beradi, oyoqlarining yorilgan joylariga surib olovda toblaydilar».

Xonaqoh 2000 yili Usmatlik Alishoev Davir Islom o'g'li va shu paytlarda Baxmal tumani hoqimi bo'lib ishlagan Mo'sa Anarboevning sa'yi harakatlari bilan

urgutlik usta Abdujabbor o'g'li Abduljalil va uning o'g'illari, hamda jiyanlari tomonidan 72 kunda qayta tiklangan.

"Usmat ota" ziyoratgohi Baxmal tumanining markazida, bahavo tog' buloqlari qurshovida joylashgan bo'lib, yer maydoni 0,42 gektarni tashkil etadi. Ayni paytda rekratsion-hordiq, ziyorat maqsadlarida foydalanilmoqda.

"Xujabog'bon ota" ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgohga Forish tumanining Xoratosh qishlog'idan burilib, tog' tomonga, dala yo'li bilan kirib boriladi. Xassos adiba Sa'dina Bobomurodovanning "Xoratosh" degan badixasi "Jizzax haqiqati" da bosilib edi. Unda shunday satrlar bor... «Qadim ajdodlarimiz bizlarga, ya'ni hozirgi odamlarga o'xshab, hashamatli uy-joylarga ruju qo'ymagan ekan. O'zi besh kunlik dunyo bo'lsa, chin uy, chin dunyoda, deya g'orlarda, yerto'la, kapa, o'tov va chaylalarda yashayverishgan ekan.

Bugun bu yerda anchagina obodonchilik ishlari bajarilgan. Ulug' avliyo otamizning manzili obod va ko'rkam, yo'laklar, zinalar, gullar, hovo'zlar ziyoratgohga fayz kiritib turibdi. "Xujabog'bon ota" xonaqosini tiklash harakati boshlangan.

"Novqa ota" ziyorattohi. Baxmal qishlog'ining Novqa qishlog'ida qadim va ko'rkam ziyoratgoh bor. Ziyoratgohning «Novqa ota» deya nomlanishini ko'proq «Nak'atun» (arabcha) - ya'ni «tuya» ma'nosi bilan bog'lashadi. Ilmiy adabiyotlarda juda ko'p bor duch kelganimiz - Nauqat, Navqand, Navqad (Navqadiy) atamalari ham aynan shu zaminga taalluqli. Bizningcha ham ana shu atama zamiridan ma'no axtarmoq to'g'riday – “yashil joy”, “yashnagan manzil...”.

Qishloq hududida «Norcho'kdi» degan joy nomi bor. Bu joyda yaqin - yaqingacha kichik bir tepalik bo'lib, qishloq odamlari bu tepalikni "rivoyatdagi ayol tuyasini cho'ktirgan joy va aynan tuyaning qoldig'i" deb o'qtirishar, chunki tepalikka o'zoqdan qaralsa, haqiqatan ham xuddi cho'kib yotgan tuyaga o'xshab ketardi.... Afsuski, to'rt-besh yil burun bu tepalik butunlay tekislanib ketibdi.

Yodgorlikning bunyod etilishi tarixi, sanasi, dastlabki qiyofasini aniqlash maqsadida mavjud hujjatli manbalar o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ushbu kunga qadar yodgorlik yuzasidan Ya. G'ulomov nomidagi O'zbekiston

Fanlar Akademiyasining Arxeologiya institut tomonidan o'tkazilgan "Arxeologik yodgorliklarni aniqlov ishlari" qatorida "Novqa otatepa" ro'yxatga olinganligini inobatga olmaganda boshqa keng qo'lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan emas.

O'zbekiston Respublikasi "Madaniyat va sport" ishlari Vazirligining Tarixiy meros ob'ektlarini ilmiy ishlab chiqarish Bosh Boshqarmasi topshirig'iga ko'ra "Novqa ota" madaniy meros ob'ektlarining Kadastr ishlarini bajarish chog'ida ziyoratgoh hududiga qisman taalluqli "Novqa ota tepa" qabristonida juda ko'plab qabr toshlari, juda ko'p darajada sopol siniqlariga duch kelindi. Ular mazkur hududning hech bir shubhasiz ming yilliklar tarixiga daxldor ekanligini tasdiqlaydi.

Shu qabriston hududida yana bir qabr toshiga duch kelindiki, uning ishlanish shakli va uymakor naqshlarning betimsolligi bilan betakrordir. Aynan qabr toshini ana shu jihatlari bilan chinakam san'at asari sifatida muhim tarixiy - ilmiy ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz

Ziyoratgoh Baxmal tumanining sharqiy-janubida, Turkiston tizma tog'lari etagidagi Novqa Novqa qishlog'ining tog' tomon biqinida, uch tomoni qir va adirlar bilan o'ralgan ixcham soylikda, ko'hna "Hovqa ota" qabristonining yonginasida joylashgan. Baxmal tumani markazi Usmatdan besh chaqirimlar, Jizzax shahridan esa 90 kilometrlar chamasi uzoqlikda. Hududi 2,25 gektarni tashkil etadi.

"Xo'jamushkent ota" ziyoratgohi. Yangiobod tumanining Xo'jamushkent qishlog'ida ana shu nom bilan atalguvchi ziyoratgoh bor.

Ziyoratgoh tarixini eramizning boshlari bilan o'lchamoq lozim. Chunki, mazkur manzilga tutash arxeologik tepalikda eramizning boshlariga oid saq va sug'diy qabrlar ko'rin ishidagi qo'rg'onlar mavjud. qolaversa, mazkur hududda uchraydigan sopol siniqlari eramizning I-II asrlarida ham bu atroflarda ajdodlarimiz yashaganligidan, tirikchilik madaniyati mazkur joylarga ham daxldor ekanligidan darak beradi.

Ziyoratgoh mustaqillik yillarida tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi, ilgari qarovsiz buloqlar qayta ko'z ochdi, daraxt va gul ko'chatlari o'tkazilib, xayr-ehson

mablag'lari evaziga juda katta obodonlashtirish ishlari olib borildi. Masjid binosi ta'mirlandi, xonakoh tiklanib, yo'laklar bunyod etildi. Ziyoratgoh hududi 14,0 gektarni tashkil etadi.

“Ko’k to’nli ota” ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh Jizzax shahridan 55 kilometrlar, Zomin shaharchasidan 5 kilometrlar chamasi uzoqlikda, Zomindan tog’ osha Baxmalga boradigan tog’ yo’lining shundaygina yoqasida joylashgan. Xonaqox, muvaqqat to’xtash joyi va oshxona binolaridan iborat.

“Ko’k to’nli ota” – “Kimki shu tuproqqa ixlos bilan bir tayoq suqsa, yoki bir urug’ qadasa-yu ko’karmasa va yo o’nmasa men zaminman, men zaminman, men zamin!” - degan mashhur iboraning egasi sifatida talqin etiladi.

Abulg’ozi Bahodirxonning “Shajarai taroqima” asarida qang’li xalqining xonining oti “Ko’k to’nli bo’lganligi” aytiladi. Respublikamizning juda ko’p joylarida “Ko’k tunli ota” ziyorat manzillari mavjud.

Mazkur yodgorlik 2006 yil To’ra Ergashevning saxovatlari evaziga ustalar tomonidan ta'mirlanib, qayta chiroy ochdi. Ziyoratgoh hududi 2,4 gektarni tashkil etadi.

"Xo’jai sarob ota" ziyoratgohi. Zomin tumanidagi so’lim Pishag’ar qishlog’ining yuqorirog’ida bir ziyoratgoh maskan bor. Bu qadamjoni mahalliy aholi “Xo’jai Sarob ota ziyoratgohi” (“Suv boshining egasi”) deb atashadi. Atrofini yashilliklar va obihayot o’rab turgan bu dargohga qadam qo’yganingiz hamono, ko’ngilni ajib bir osoyishtalik qamrab oladi. Go’yoki, g’am-tashvishga to’da dunyo orqada qolib, betashvish olamga kirgandek xis qilasiz, o’zingizni. Teparoqda maqbara. Maqbara ro’parasida masjid qad ko’targan bo’lib, ziyoratgohning xushhavo tabiatiga o’zgacha ulug’vorlik baxsh etganday.

Xo’jai Sarob ota umrining oxiriga qadar ushbu maskanda yashab, bog’dorchilik, uzumchilik bilan shug’ullanib, halol mehnat ila kun kechirgan, shu bilan birga mahalliy axoli farzandlarini ilmu ma’rifatli qilgan komil inson ekanlar. Xalq orasida bu yerdagi buloqning shifobaxshligi, kimki undan yaxshi niyat bilan ichsa dardiga davo topishi, ham niyatiga yetishi haqidagi rivoyatlar xali hamon

mashhur. Hozirda shu buloqning suvidan Pishag'or va Qangli qishlog'ining 3 mingdan ziyod aholi suv ichmoqda.

Mustaqillik yillarida ziyoratgoh obod etildi. Bunda Pishag'ar qishlog'ining Abdug'ani Ilashev, Yunusxon Axmedov, Sa'dulla Qarshiboev kabi fidoiy farzandlarining xizmatlari beqiyos. Ularning bevosita tashabbusi bilan 1997-2001 yillarda ziyoratgoh qayta ta'mirlandi, obodonlashtirildi.

Darhaqiqat, Istiqlol bizga shu kabi ziyoratgohlar tarixini o'rganish, ularni obod qilish, bobolarimizning kim ekanliklarini anglash baxtini ham berdiki, sho'ro davrida harobaga aylangan bu kabi dargohlar bugun gullab-yashnamoqda, xalqimizga xizmat qilmoqda. Ziyoratgoh hududi 2,0 gektarni tashkil etadi.

"Xoja Shohimardon sherdor" ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh Zomin tumanining Turkman qishlog'ida asriy tut daraxtlari hovuchida, yashil bog'-chorbog' ichida joylashgan bo'lib bir necha eshonzodalar so'nggi manzil tutgan obod maskan. Hazrat Aliga nisbat beriladi. Hududi 2,3 gektar.

"Parpi ota" ziyoratgohi. "Parpi ota" ziyoratgohi Jizzax shahridan 45 kilometrlar chamasi uzoqlikda, Morguzar tog'larining orasida, "Kurpasoy" mahalla fuqarolar yig'inidagi Yalpoqbosh qishlog'i hududida joylashgan bo'lib mahalliy aholi tomonidan aziz maskan sifatida e'zozlab kelinadi.

Ziyoratgohda sirli-sinoatli teshiktosh bo'lib emishki "gunoxi borlarni poqlar emish..." Teshiktoshga tutashtirib xonaqoh, ayvon, alohida muvaqqat masjid binosi qurilgan. Ba'zi manbalarda ziyoratgohga X asrda yashab o'tgan mashhur sharq muhaddislik ilmining buyuk bilimdoni, so'fiylik tariqati sardorlaridan biri Al-Ahmad ibn Abuhamid Razzoliyning (vafoti 1122 yil) kadami yetgan deb taxmin kilinadi. "Parpi ota" - "oq ota" demak bo'lib, arabchada "parfi" - "oq" deganidir. "Parpi ota" nomi bizga "oq kiyimli ota", "oq niyatli ota, yoki oq rangli teshiktoshga nisbat berilib "oq tosh ota" kabi ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

"Sayid burxoniddin qilich" ziyoratgohi. "Qilich Burxoniddin" nomi bilan mashhur Farg'ona hukmdori bo'lgan bir hukmdorning o'z ixtiyori bilan taxtdan voz kechishi va uning qabri buyuk karvon yo'li ustidagi manzillardan biri bo'lishi mumkinligi haqida yozma manbalar anchagina topilgan sopol siniqlari va tangani

ilmiy o'rganish natijalariga qarab yodgorlikni eramizning X asriga, Somoniylar davriga taalluqli, deb topildi.

Xonaqoh Oqbulloqlik Baxtiyor Eraliev mablag'lariga, Samarqandlik qo'li gul ustalar tomonidan qayta bunyod etildi. Masjid binosi XV asrda bunyod etilgan "Xolid ibn Volid" masjidi rejalari asosida tiklangandir. Majmua hududi 1,0 gektarni tashkil etadi.

"Cho'qmozorota" ziyoratgohi. Yangiobod tumanida, "Ko'shqand" qishloq fuqarolar yig'ini, Qo'shqand qishlog'idan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan, o'zbek qavmlaridan biri-Juzning bir juzi, So'loqli elining bir bo'lagi "Cho'qmorli" deb yuritiladi, ana shunga mutanosib ravishda ular sig'inadigan manzil "Cho'qmozor ota" deb atalib ketilgan.

Ziyoratgoh hududida 600-700 yoshlik keksa tut daraxtlari, ko'hna qabriston, xonaqoh, arxeologik tepalik joylashgan. Hududi 3.0 gektarni tashkil etadi.

"Sayfin ota" ziyoratgohi. G'allaorol tumanidagi Sayfin ota qishlog'i hududida bo'lib, maydoni 8,0 gektarni tashkil etadi. Quyuq daraxtzor, ko'hna qabriston, masjid binosi, xonaqoh mavjud qabriston hududida o'ta noyob naqshu nigorlar bilan bezatilgan, san'atkorona uslubda ishlangan bir necha tarixiy qabr toshlari tilshunoslarni kutmoqda.

"Archamozor ota" ziyoratgohi. Zomin tumanidagi Yettikechuv qishlog'idan yuqoriroqda, archazor bag'rida, Yettikechuvsoy yoqasida joylashgan mazkur qadamjo shifobaxsh buloqlari bilan e'tibor topgan. Bu yerdagi qabristonga ming yilning yuzi bo'lganligi aytiladi. "Archamozor ota"da XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida "Mulla Nazar Vali" degan kishi yashaganligi va shu yerga qo'yilganligi qayd etiladi.

Zomin tumanining Beshkubi qishlog'i hududida shu nomdagi ziyoratgoh bor. Bu manzilgoxda ikkita arxeologik tepalik bo'lib "Qilich Burhoniddin avliyo" va "Sayd Burhoniddin avliyo"-deb ataladi. Har ikkisida ham bittadan qabr bor. Ziyoratgoh hududi 2,4 gektar bo'lib arxeologik xudud, xonaqoh, ko'hna qabriston va masjid binosidan tashkil topgan.

"Xoja qahhor vali" qadamjosi. "Zomin" atamasi "Avesto"da tilga olingan "Zomyod" - farovonlik farishtasi nomi bilan bog'lanadigan bo'lsa, mazkur shaharning tarixi zardushtiy ota-bobolarimiz zamonasi bilan, eramizdan avvalgi VII-V asrlar bilan o'lchanadi. Zomin shaharchasining o'rtasida ajoyib yodgorlik majmuasi joylashgan. "Xoja Qahhop Vali" majmuasiga kiruvchi "Xolid ibn Bolid" masjidi ayvoni oqbulloqlik Boy Eshon tomonidan usta Hakim ko'li bilan bunyod etilgan. Bobotut daraxtining yoshi ikki ming yildan kam emas.

"Parpi oyim" ziyoratgohi. Uvolsoy darasida "Parpi oyim" nomi bilan yuritilguvchi ziyoratgoh bor. "Ziyoratgoh hududida" dardlardan xalos etuvchi Teshiktosh" va chog'roq sog'ana bor. Befarzand ayollar Teshiktoshdan uch karra o'tib toshidan beliga boglab yursalar armoni o'shalarinish Farzandli bo'lgach, haligi toshni albatta qaytarib joyiga qo'yib ketishi kerak emish. Ziyoratgoh hududi 10,0 gektarni tashkil etadi.

"Qoplon ota" ziyoratgohi. Qoplonota bag'rida xovunkesdi va Beshbuloq qishloqlari oralimda joylashgan yashil go'sha ming yillar ilgari ham shunday yashilligi, shunday bokiraligi bilan aziz-avliyolar nazarini tortgan bo'lsa ajab emas!

Manzilgoh mo'jizagina mo'jizaviy va shifobaxsh buloq atrofida, ming yillik keksa tut va tol daraxtlari soyasida joylashgan. Mazkur manzildagi shifobaxsh buloqqa niyat qilib bir tanga tashlasangiz va qo'l sukib bir tosh yoki tanga olsangiz, niyatingiz albatta ijobat bo'lishi bor gap.

Bugun bu maskanda go'zal bog' yaratilgan, yurtdoshlar xayru saxovati evaziga tog' ustida juda go'zal manzara bag'rida xonaqoh tinlangan. Ziyoratgoh hududi 2,3 gektarni tashkil kiladi.

«Bog'i mozor» ziyoratgohi. Baxmal tumanining Mo'g'ol qishlog'iga yaqin joyda shunday ziyoratgoh bo'lib, mazkur manzil haqida "Ganji Alisher" nomi bilan Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ham ma'lumot berib o'tilgan. Zamonlar o'tishi bilan "Sayyid Ne'matilloxxonh-Mirixalillox"ning "Ne'matilloxxon"i tushib qolgan va "Sayyid Mir Xalililloh" shakliga aylangan bo'lsa extimol! Sayyid Mir Xalilillox ziyoratgohi mustaqillik yillarida xalqning

xayr ehsonlari evaziga qayta ta'mirlandi, xonaqoh qayta tiklandi, obod masrur maskanga aylantirildi. Bugungi kunda bu yerga kelayotgan, o'tmish qadriyatlarimizga beqiyos hurmat va e'zoz ko'rsatayotgan ziyoratchilarning keti uzilmaydi. Ziyoratgoh hududi 2,07 gektarni tashkil qiladi.

“Narvon ota” ziyoratgohi. Narvon ziyoratgohi Nurota tizma tog'ining janubiy dala dashtlaridagi eng katta qishloqlardan bo'lib, Forish tumani hududida joylashgan. qishloqning tabiati nihoyatda go'zal, ikki tomonida baland adirliklar, sersuv buloqlari nihoyatda ko'p. Qishloqning eng yuqori qismida “Suvqo'shilish”, “Narvon ota”, “Haydarboyning hayoti”, “Qo'nishboyning ravoti”, “To'ng'izzlik mulla Ahmad boboning bog'i”, “Kenjaboyning hayoti”, “Allayorboyning olmazori”, “Keldiyorboyning o'rikzori” deb atalguvchi mevali va manzarali daraxtzorlardan iborat go'zal bog'lar bor. Bu nomlar yuz yillar davomida el-yurtga xizmat qilib kelmoqda. **“Ko'lfisar ota” ziyoratgohi.** “Ko'lfisar” - bu yerdagi uzun qabrda “qulflab ko'milgan bosh” degan ma'noni anglatadi. Qabrdagi kishi payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan oldin, Lut payg'ambar zamonasida yashab o'tganligi aytiladi. Qur'oni Karimda aytilishicha o'sha davrning odamlari juda uzun bo'lishgan ekanlar. Odamning uzunligi 8 gazdan 13-14 gazgacha bo'lganligi aytiladi. Ziyoratgohdagi qabr 12-13 metrni tashkil etadi. Ziyoratgoh hududi 6,0 gektarni tashkil etadi.

“Qulfisar ota” ziyoratgohi Jizzax tumanida SHarof Rashidov nomli jamoa xo'jaligi hududida joylashgan bo'lib, xonaqoh, masjid, arxeologik yodgorliklar o'rinlari - qal'alar qoldiqlari va ko'hna qabriston mavjud.

“Qirqchilton” ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh Jizzax tumani “Ko'rpasoy” mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Sho'rbel qishlog'i yaqinida joylashgan bo'lib, hududi 7,5 gektarni tashkil etadi. Yangidan tashkil etilgan bog' o'rtasida xonaqoh bor.

“Xonbandi”. Tarixiy manzilgohlar tariximizning o'tmish zamonlaridan g'aroyib afsonalar, go'zal ertaklar suylab beradi. Forish tumani markazidan Band shaharchasiga qarab yo'lingiz tushsa, albatta g'aroyib, ham antiqa tarixiy yodgorlikni - Xonbandini ko'rish mumkin.

“Xonbandi” suv ombori ikki yuz yillar chamasi faoliyat ko’rsatib turganligi ehtimollanadi. Chingizxon bostirib kelgan zamonlarda esa... bunday suv inshootidan foydalanishga imkon qolmagan, suv ombori qum bilan, sel oqindilari bilan gulib bo’lgan edi.

Bobolar qo’li bilan tiklangan yodgorlik - qadamjo sifatida butun juda gavjum. Tarixiy inshoot o’z go’zalligi va mahobati bilan kishilarni hali hozir ham o’ziga maftun etadi. Yodgorlik asrab - avaylanishga, qadrlanishga muhtojlik sezmoqda. Yodgorlik hududi 8,0 gektarni tashkil egadi.

“Qobulmozor” ziyoratgohi. Ulug’ Sohibqiron Amir Temur o’zining qator yurishlari davomida Zomin o’lkasi orqali bir necha bor o’tadi. Qator janglari va g’alabalarini Zomin tog’larida jangu-jadal bilan qo’lga kiritadi. Zomin tog’lari qadimdan katta tarixiy strategik ahamiyati va qolaversa go’zal tabiati, ma’danlarga boyligi, ov-shikor uchun qulay, bahavo o’lka bo’lganligi uchun ham juda ko’p podshohlar va xoqonlar e’tiborida bo’lgan.

“Qum ota” ziyoratgohi. Zomin tumanida Laylak-uya qishlog’ida joylashgan. Bugun bu yerda kunim toptan zoti bobarokotning sog’analaridan uncha uzoq bo’lmagan joyda qadim qal’a qoldiqlari - hayratli tepalik bor, bu o’sha Laylakkon qal’asidir. Mavlono Lutfulloh sog’anasining yonidagi qumloqda ajoyib bir xislat namoyon... Bel og’rig’i, oyoq og’rig’i, bodi, ja’mi tana-vujudida og’rig’i bor kimsalar «Qum ota» ga dardiga shifo istab qadam ranjida qiladilar, bu yerdagi ilohiy mo’jiza tufayli dardlariga darmon topadilar, sihatchilikka erishadilar. Ziyoratgoh 3,2 gektarni tashkil etadi.

“Beshbuloq ota” ziyorat manzili. Zomin tumanida Pishagar qishlog’ining ustida arxeologik mpnzillar kurshovida joylashgan mazkur ziyorat manzili o’zining shifobaxsh buloq lari bilan mashhur. Bu yerdagi tepalik ostida g’or-chillaxona bo’lganligi rost gap, hozirda mazkur chillaxona butunlay ko’milib ketgan. Ko’hna manzillar, eshonzodalar qabrlari bor.

Yuqoridagi madaniy-tarixiy turistik resurslardan tashqari Forish tumanida “Hasan ota”, G’allaorol tumanida “Savruk ota”, Zomin tumanida “G’oyib ota”, “Toshkesgan ota”, “Beshbuloq ota”, Baxmal tumanida “Xoja Kundalang”,

“Terakli ota”, “Machitli ota”, “Malik Ajdar” (“Morguzar ota”), Jizzax ikkrida “Xujagoziyon”, “Boboyakka”, “Xujamozor” va boshqa ko’plab manzillari borki, ularni ham o’rganish, ilmiy tadqiq etish orqali viloyatda turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

3.2. VILOYATNING REKREATSIYA-EKOTURISTIK RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Jizzax viloyatining tabiati o’ziga xos landshaftlarga ega bo’lib rekreatsiya faoliyati va ekologik turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat tug’diradi. Viloyat geografik jihatdan Turkiston tog’ tizmasining shimoliy yon bag’ri, tog’ oldi tekistliklarini O’zbekiston respublikasining Qozoqiston respublikasi bilan bo’lgan chegaralarida joylashgan. Relefi tog’, tog’ oldi adir hududlari va dasht va shimolda qumli cho’l maydonlaridan iborat. Yer yuzasi relefi tuzilishi jihatlaridan quyidagi ekoturistik rayonlarga bo’linishi mumkin:

I. Turkiston tog’ yonbag’rlaridagi archazor o’rmonlar ekoturistik rayoni.

- 1.1. Zomin milliy parki.
- 1.2. Zomin tog’ o’rmon davlat qo’riqxonasi.
- 1.3. Zomin tog’lari ekologik landshaftlari.
- 1.4. Baxmal tog’lari landshaftlari.

II. Molguzar tog’ tizmalaridagi siyrak archazor o’rmonlari bog’liq tabiiy landshaftlar ekoturistik rayoni.

III. Nurota tog’larining shimoliy-g’arbiy qismidagi tog’ o’rmonlari, yon tokzorlar, tabiat landshaftlari bilan bog’liq ekoturistik rayon.

- 3.1. “Nurota” davlat qo’riqxonasi.
- 3.2. Forish tog’lari tabiat landshaftlari.
- 3.3. Qo’ytosh tog’laridan tosh haykallar va tog’ qoytoshlaridagi qadimiy rasmlar.

IV. Mirzacho’l botig’i va tekisliklar qisman shimoldagi qumli cho’l ekoturistik rayoni.

V. Suv havzalari ekoturistik rayoni.

5.1. Sangzor daryosi suv havzasi

5.2. Zominsuv daryosi suv havzasi

5.3. Arnasoy ko'li havzasi

5.4. Aydarko'l havzasi

5.5. Jizzax suv ombori

5.6. Arnasoy davlat zakazniki (uchib kelib ketuvchi qushlarni muhofaza qiladi)

Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki Jizzax viloyati hududlarida respublikamizning barcha tabiiy geografik mintaqalaridan o'ziga xos burchaklari yoki maydonlari bor. Viloyatdagi tabiat landshaftlar hozirgacha ekoturistik maqsadlarda o'rganilmagan, shuning uchun ham yuqorida keltirilgan ekoturistik rayonlar shartli bo'linish hisoblanadi.

Endi biz xalqaro ekoturizm bozoridagi ekoturistik talablarni va ekoturistik mahsulotlar, ekoturistik xizmatlarga bo'lgan talablarni e'tiborga olsak viloyatdagi ekoturistik resurslar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

I. Viloyatdagi davlat tabiat qo'riqxonalari va davlat tabiat buyurtmalari ekoturistik resurs sifatida.

1.1. "Zomin" milliy parki.

1.2. "Zomin" tog' o'rmon davlat qo'riqxonasi.

1.3. "Nurota" davlat qo'riqxonasi.

1.4. "Arnasoy" davlat zakazniki.

Zomin tog' o'rmon davlat qo'riqxonasi. Qo'riqxona Turkiston tizma tog'lari g'arbiy qismining shimoliy yon bag'rida, Kulsoy va Fypalaccoy havzalarini ishg'ol etgan. Janubiy Tojikiston bilan chegaradosh. Maydoni 15,5 mingga, shundan 11,2 mingga archa o'rmonzorlari. Dastlab 1926 yilda Guralas tog' archa qo'riqxonasi nomi bilan tashkil etilgan. Qo'riqxonada tog' o'rmonlarini va archa biologiyasini o'rganish, archazorlarni ko'paytirish, hayvon va o'simlik turlarini sakdab qolish ishlari olib boriladi. Relefining murakkabligi va turli iqlim-tuproq sharoitlariga ko'ra, qo'riqxonada 3 o'simlik mintaqasi (dasht,

o'rmon, subalp) mavjud. Qo'riqxonada hududi tipik tog'li o'lka bo'lib, dengiz sathidan 1760-3500m balandlikda (eng yuqori nuqta - Turalas tog'i 3560,5 m balandlikda). Yillik o'rtacha yog'in miqdori 400 mm dan ortiq. Iqlimi keskin kontinental, maksimal harorat yozda 33°, kishda 35-38°.

Qo'riqxonada hududida archazorlarning kuyi qismida (1900-2700 m) Zarafshon archasi va qora archa, o'rta qismida (2100—2800 m) sovur archa, yuqori qismida (2100—3200 m) o'rik archa o'sadi. Bulardan eng ko'p uchraydigani sovur archadir. U qora archa va o'rik archa orasida ham o'saveradi. Qo'riqxonada 180, hatto 400 yoshga kirgan archalar bor. Archadan tashqari Tyan-shan chetani, Turkiston qayini; butalardan zirk, na'matak, uchkat, irgay, tobulgi o'sadi. Qo'riqxonada xayvonot dunyosi xilma-xil. Qo'riqxonada Respublika Qizil kitobiga kiritilgan Turkiston silovsini, oqtirnoqli ayiq arhar, bars shuningdek, bo'ri, bursiq, tulki, jayra, to'ng'iz va boshqalar yashaydi. Qo'riqxonada hududida o'simliklarning 720, turli qushlarning 130, sut emizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilardan, baliqning bir turi tavsiflangan.

Parrandalardan pushti shak-shak., to'rtay, mikkiy, zarcha, zagizxon kaklik, bedana, boltatumshuq, govkaptar, g'urrak, turkiston ukkisi, boyqush. va boshqalar bor. Qo'riqxonada uning hayvonot va o'simliklar dunyosini o'rganish bo'yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot ishlari olib boriladi.

Zomin milliy parki. 30min milliy - Zomin tog' o'rmon mintaqasida qishgi sport turlari markazi, sog'lomlashtirish sport majmuasi tarzida 1976 yilda tashkil etilgan. 1978 yilda «O'zbekiston xalq bog'i» nomi berilgan. Tarkibiga Zomin o'rmon xo'jaligining Zomin uchastkasi, O'rmon xo'jaligining Ko'lsoy tayanch punkti, Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi kirgan. Umumiy maydoni 24,1 ming ga (2002).

Zomin milliy parki Zomin tumanida, asosan, Turkiston tog', qisman Molguzar tog'ning 1000-4030 m gacha bo'lgan balandliklarida joylashgan. Uning geomorfologik landshafti har xil bo'lib, tabiiy sharoitlari tog' balandlik poyaslariga bog'liq hududining geologik tuzilishida eng yuqori tabaqani har xil paleozoy (slanets, ohak, qum-toshlar) yotqiziqlari tashkil qiladi. Paleogen va neogen

yotqizkilari ham keng rivojlangan. Ayniqsa kengligi 500 m va chuqurligi 450 m teng bo'lgan Cho'rtanga jarligidagi sharshara, Supa tekisligi turistik jihatdan katta e'tiborga ega.

Bu bog' hududida asosan Sangzor va Zominsuv daryosi havzalari joylashgan. Umuman bog'ning gidrografik tarmoqlari unchalik qalin emas. Xalk bog'ning umumiy iqlimi kontinental va qurg'okchil. Bog' hududida Sangzor —1307 m, Ko'loiy - 2100 m, Guralash - 2260 m va SHahriston - 3200 m meteorologik styalari joylashgan. Tog' oldi yerlarida yillik yog'in miqdori 353 mm, baland tog'larda 348 mm, o'rta tog'larda esa 405 mm ga teng, ularning 50—60 bahor fasliga to'g'ri keladi. Havoning yillik o'rtacha nisbiy namligi 30-35% tashkil qiladi, o'rtacha yillik Harorat ko'rsatkichi 21.7° - $26,3^{\circ}$ ga teng. Ko'loiy Shoxiston punktlarida iyun oyining o'rtacha harorati $21,9^{\circ}$ - $9,9^{\circ}$ ga teng.

Bog'da tuk, kulrang, och jigarrang, archa o'rmonzor tuproqlari, yuqori tog' yaytov. utloqi-botqoqi, o'tloqi tuproqlar turlari uchraydi. O'simliklar dunyosi dasht, archa o'rmonzorlari, tog' kserofitlari va subalt poyaslaridan iborat. Archazorlar bog' maydonining 55% tashkil qilib, 2000-3000 m balandliklarda joylashgan. Bu yerda archaning zarafshon (qora archa), sovur archa va turkiston archalari turlari tarqalgan. Bog' mintaqalarida 400 yoshli va undan katta archalarni uchratish mumkin. Ayniqsa bog' hududida dorivor o'simliklarning 30 dan ortik, turi, lolalarning ko'pligi, mevali butalarning keng tarqalishi e'tiborga sazovor. Umumiy o'simliklar turlari soni 100 dan ortiq bog'da daraxtlarning 8, butalarning 15 va o't - o'lanlarning 220 dan ko'proq turlari uchraydi.

Hayvonot dunyosi bog'ning landshaftiga qarab moslashgan, ammo ularning tarqalishida alohida chegara yo'q, Pastki tog' landshaftlarida (400-2000 m) tulki, quyon, cho'l bo'risi, bursik, o'rta tog' landshaftlarida oq tirnoqli ayik, yovvoyi to'ng'iz, tulki, quyon, bo'ri, baland bog' - rog'larda ayik, to'ng'iz, o'rta osiyo tog' echkisi, Severtsev ko'yi, oq, suvsar, silovsin; uy sichqoni, o'rmon sichqoni, archazor sichqoni, olmaxon; qushlardan chug'urchuq, burgut, mayna, sava ko'k karg'a, zag'izg'on, sariq, chumchuq, bul-bul, chug'urchuk, burgut, ular, kirg'iy, o'kki, sava, loyxo'rak, kabo'tar bor. Zominsuv va Sangzor irmoqlari bo'lgan

soylarda marinka va shoh, baliqlar suv; ilonlardan sariq ilon, suv iloni, chipor ilon, qalqon tumshuq, ilon, turkiston atamasi va suv baqalari uchraydi.

Nurota davlat qo'riqxonasi. Jizzax viloyatining g'arbiy qismi (Forish tumani)da, Nurota tog'ining shimoliy yon bag'rida joylashgan qo'riqxonasi. 1975 yilda tashkil etilgan. Maydoni 17752 ga, shu jumladan, o'rmonlar bilan qoplangan tog'ining 2599 ga (2001), dengiz sathidan 530-2100 m balandlikda. Asosiy vazifasi shu hududning o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish, Xalqaro va O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan arxarnnnng Osiyo kuyi turiga mansub Severtsev kuyi (Qizilqum kuyi) populyatsiyasini hamda yong'okning tabiiy xilma-xilligini saqlashdan iborat.

Qo'riqxonada o'simliklarning 629 tadan, qushlarning 195 tadan, hayvonlarning 60 tadan ortik, turi bor. Ularning ko'pchiligi endemik (lola turlari, anzur piyozi). Yong'oq daraxtlari bilan birga yovvoyi olma, qayrag'ochlar o'sadi. Butalar qoplami, asosan, Turkiston do'lanasi, qizil, uchkat, zirk, iringay, yovvoyi toklardan iborat. Qo'riqxonasi hududi tabiat manzaralariga, arxeologik topilmalarga boyligi bilan ham ajralib turadi: qoyatosh (tog' kuyini ovlash) suratlari, Majrum-soydagi tanasi yo'g'onligi 8,5 m keladigan sharq biotasi daraxti (yoshi taxminan. 1000 yildan ortiq) kabi yodgorliklari bor. Arxarlar soni 500 dan ko'proq.

II. Betakror tog' archazor o'rmonlari tabiati ekoturistik resurslar sifatida.

2.1. Turkiston tizmalari tog'lari shimoliy yon bag'ridagi archazor o'rmonlari.

2.2. Molguzar tog' tumanlaridagi siyrak archazor o'rmonlari bilan bog'liq tabiat landshaftlari.

2.3. Nurota tog' tizmalaridagi archazor, yon tokzor o'rmonlari

2.4. "Zomin" tog'laridagi archazor o'rmonlari

2.5. "Baxmal" tog'lari archazor o'rmonlari

2.6. "Forish" tog'lari tabiat landshaftlari

2.7. "Quyutosh" tog'laridagi tosh haykallar va qoyatoshdagi qadimiy rasmlar.

2.8. Mirzachul va qumli cho'l tabiat landshaftlari

III. Suv havzalari ekoturistik resurslar sifatida.

3.1. Sangzor daryosi suv havzasi.

3.2. Zominsuv daryosi suv havzasi.

3.3. Jizzax suv ombori.

3.4. Arnasoy ko'li havzasi.

3.5. Aydarko'l suv havzasi.

Zominsuv - Zomin tumanidagi soy. Yuqori oqimida Yettikechuv, Duoba qishlog'i yaqinida Sanganaksoy, Zomin shaharchasi yaqinida Zominsuv deb ataladi. Turkiston tizma tog'ining qariyb 2500 m balandlikdagi shimoliy g'arbiy yon bag'irlaridan boshlanuvchi O'rikli soy, Galdiravut, Yettikechuv va boshqa soylarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Zominsuv Sirdaryo Xovos-Jizzax temir yo'lga yetmasdan Qo'shtamgali qishlog'idan 3,5 km janubiy sharqda tugaydi. 58 km, havzasining maydoni. 704 km². qo'prok, qor, yomg'ir va buloq, suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi 1,83 m³/sek. (Duoba qishlog'i yaqinida), eng katta suv sarfi 16,8 m³/sek (1969. 28. 05). To'linsuv davri (aprel-avgust) da yillik sarfining 60-65% oqib o'tadi. Eng sersuv oy-iyunda o'rtacha suv sarfi 4,56 m³/sek ga teng. Zominsuvdan Zomin shaharchasi, Duoba, Yettikechuv, Qushchi va boshqa qishloqlar suv ichadi, ekin maydonlari sug'oriladi.


Jizzax suv ombori - Jizzax shahridan 9 km janubiy-sharqda, Yoyilmasoy jarligida joylashgan. 1963-68 yillarda qurilgan. Maydoni 12,7 km², chuqurligi 26 m, suv hajmi 87,5 mln. m³, keng joyi 5,1 km, uzunligi 3,3 km. Suv omboriga 25 m³/sek suv keltiradigan (uzunligi 9 km) va suv omboridan 10 m³/sek suv chiqaradigan (uzunligi 15 km) kanal qurilgan. Jizzax suv omboriga Sangzor daryosining suvi to'planadi. Suv ombori Jizzax tumanidagi 15 ming ga.dan ortgan yerni suv bilan ta'minlaydi.

3.3. VILOYATDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy- iqtisodiy ahvolini yaxshilashda yangi ish o'rinlarini ochish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash lozimligini taqozo qilmoqda.

Chunki bizning sharoitimizda kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratib, ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Shu sababli Inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi². Shuning uchun qaysi tarmoqlarda yangi ish o'rinlari ochish imkoniyati bo'lsa, undan samarali foydalanish lozim. Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Shu sababdan mamlakatimizga xorijiy turistlarning qiziqishi yildan-yilga oshmoqda (2- rasm.)




2-rasm. 2006-2010 yillarda O'zbekiston respublikasida turistlarga xizmat ko'rsatish sig'imi(ming kishi his.)

²Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.SH., G'ofurov U.V., Tuxliev B.K. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 90 b.

Mazkur rasmdan ko'rish mumkinki, xorijiy turistlar tashrifi o'tgan yillarga nisbatan o'sib borgan. Lekin shu ahvolda ham YaIMda turizmning ulishi yuqori emas.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, «O'zbekturizm» MK tomonidan xizmat ko'rsatilgan xorijiy turistlar sonining 2000-2010 yillar davomidagi o'zgarish sur'ati turli tendentsiyaga ega. Jumladan, uning miqdori 2000 yildan 2007 yilgacha kamaygan holda amalga oshirilgan, 2007 yildan boshlab keskin oshib borishi kuzatilmoqda va 2010 yilda 2000 yilga nisbatan 138,1 %ni tashkil qilgan. Agar ushbu o'zgarishni yilma-yil tahlil qiladigan bo'lsak, turistik xizmatlarning 2001, 2002 va 2005 yillarda o'zidan oldingi yilga nisbatan kamayganligi ko'zga tashlanadi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun yirik turistik salohiyatga va resurslarga boy hududlardan biri Jizzax viloyati hisoblanadi. Mazkur viloyatda turizmning barcha turlari mavjud. Yuqori turistik salohiyat va boy turistik resurslar bilan Jizzax viloyatining ulushi qandayligini tahlil qilish maqsadga muvofiq.




3-rasm. 2006-2010 yillarda Jizzax viloyatida xizmat ko'rstaish va turizm soxasidan tushadigan daromadlar ko'rsatkichi (mln. so'm xis.)

Mazkur rasmdan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, shu tahlil qilingan 2000-2010 yillar davomida O'zbekistonning turizm xizmatlaridan olgan daromadi

keskin o'sgan. Xuddi shunday tendentsiya Jizzax viloyatida ham kuzatilgan. Shuni e'tirof etish kerakki, viloyatning ulushi turistik xizmatlar tarkibida ham muttasil oshib borgan.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning turizm xizmatlari tarkibida, agar ularni xizmat ko'rsatilgan turistlar soni bo'yicha olgan taqdirda 2000-2010 yillar davomida jizzax viloyati ulushi oshib borgan. Bu yerda turistik xizmatlarning summasiga nisbatan turistlar soni bo'yicha bir muncha o'zgarish sezilmoqda (3-rasm). Mazkur grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning turizm xizmatlarida xizmat ko'rsatilgan turistlar soni bo'yicha tahlil qilinganda 2000-2010 yillar davomida Jizzax viloyatining ulushi turli o'zgarishlar asosida sodir bo'lgan. Ushbu ko'rsatgichning miqdori 2006 yildan boshlab ko'payib borgan.




4 -rasm. 2006-2010 yillarda Jizzax viloyatida xizmat ko'rsatish va turizm sohasidan tushadigan foydaning ko'rsatkichlari (mln. so'm xis.)

Turistik xizmatlarning tarkibida turxizmatlar eksportining ahamiyati katta. Bu nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy-madaniy va siyosiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki mazkur xizmatlar orqali mamlakatimiz dunyoga taniladi, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar o'rnatiladi, mamlakatimizning iqtisodiy

yuksalishi uchun zamin hozirlanadi, valyuta tushumi ko'payishi bilan birga boshqa davlatlardan investitsiyalarning kirib kelish jarayoni ham sodir bo'lishi mumkin.

Shu tufayli O'zbekistonning turizm xizmatlarida turxizmatlar eksporti bo'yicha 2000-2010 yillar davomida Jizzax viloyati ulushida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ham tadqiq qilishni maqsadga muvofiq deb topdik (4-rasm). Ushbu grafikda tahlil qilinayotgan holat yaqqol ko'rinib turibdi. 2006-2010 yillarda tizimli ravishda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu holat Jizzax viloyatida turizmga mas'ullarning turxizmatlar eksporti bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini taqozo qiladi.



5-rasm. 2006-2010 yillarda Jizzax viloyatida xizmatlar eksportining ko'rsatkichlari (AQSH dollari xis.)

Viloyatda turizmni rivojlantirish istiqbollari O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish muammolari bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. Viloyatda turistik-rekreatsiya resurslari salohiyati juda katta hisoblanadi. Viloyat hududlarida respublikamizdagi tabiiy geografik mintaqalarining xususiyatlarini kichik mikro darajadagi tabiiy ekologik maydonlar mavjud. Viloyatning eng muhim ekoturistik resurslaridan biri – Nurota tog'-o'rmon davlat qo'rio'xonasida noyob hayvon "arxar saqlanmoqda va ko'paytirilmoqda.

Zomin tog'laridagi archazor o'rmonlar Zomin davlat tabiat qo'riqxonasida "qizil kitob" dagi noyob hayvonlar muhofaza qilinib ko'paytirilmoqda.

Tabiatimizni betakror tog' va cho'l landshaftlari haqida ham qayd qilingan cheklovlarni keltirish mumkin. Ekologik turizmni rivojlantirish uchun ekologik turizmning asosiy resurslaridan foydalanishi imkoniyatlarini tahlil qilib ekoturizmdagi muammolar quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ldi:

- viloyatda ekoturizmning asosiy resurslari davlat muhofazasida ekanligidan bu ekoresurslardan hozircha foydalanish imkoniyatlari deyarli yo'q holatda.
- viloyatdagi asosiy ekoturizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqish qoniqarsiz holatdagini alohida ta'kidlash zarur.
- Qo'riqxonalar, zakazniklar va milliy parklarda ekoturizm so'qmoqlari, marshrutlari va marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko'rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga xaligacha kirishilgan emas.

Respublikamizda ekologik turizm resurslaridan foydalanishning huquqiy-qonuniy me'yorlari hozirgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababdan:

1. Viloyatda ekoturizm sohasida xizmat qiluvchi, jahon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarni ekoturizm rivojlangan mamlakatlarga (AQSH, Yaponiya, Kanada, Frantsiya, Germaniya) malakalarini oshirish uchun o'qishga, ishga yuborish lozim.

2. Jahon andozalari va talabalarini mos keladigan ilmiy va iqtisodiy asoslangan katta kichik, qisqa va o'zoq muddatga mo'ljallangan loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqib amalga oshirish lozim. (imtiyozli kredit asosida).

3. Viloyatda ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy-texnik, axborot tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish zarur.

4. Viloyatning tarixiy yodgorliklari, go'zal va betakror tabiati, landshafti, nabotot va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlas va xaritalar yordamida dunyo ekoturizm bozorida targ'ibot ishlarini amalga oshirish lozim.

5. Viloyat bo'yicha yangi ekoturistik dasturlar yo'nalishlar va xaritalar tuzish kerak.

6. Ekoturizm sohasi bilan bog'liq tashkilotlarga ko'proq huquqlar, imtiyozli soliqlar berish, chet el sayyohlariga viza olish ishlarini soddalshatirish, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga ekoturistlarga nisbatan huquqiy nazorat ishlarini yengillashtirish bo'yicha ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Viloyatda diniy turizmni rivojlantirishdagi istiqbollar shundan iboratki, birinchidan viloyatda diniy ziyoratgoh turizmni rivojlantirish ishlab chiqish rejalari tayyorlaganicha yo'q. Hozirgacha viloyatda 40 ta taniqli aziz avliyolarning qadamjolari, daxmalari yoki ular bilan bog'liq muqqadas joylar ro'yxatga olingan ta'rif va tavsiflari yozilgan.

Hozirgi kunda ushbu ziyoratgohlarni sanoqlilaridan foydalanilmoqda. Masalan, G'allaorol tumanidagi "Avliyo ota- Sa'd ibn Vaqqos ziyoratgohi" bahor yoz-kuz oylarida har kuni gavjum. Jizzaxliklar va qo'shni viloyatdagilar bu yerda tashkil qilingan xizmatlardan doimo minnatdorligini izhor qilishib yuradi. Ikkinchidan, ushbu ziyoratgohga tekis, sifatli yo'l yetkazilgan, reklamasi og'zaki holda bo'lsa ham xalq orasida ommaviylashgan. Choy va ovqatlantirish xizmatlari, idish-tovoq, palas, ko'rpa va yostiqlar arzon narxda beriladi, o'tin bilan ta'minlanadi. Demak, viloyatdagi barcha diniy ziyoratgohlardan foydalanish uchun ushbu joylargacha yo'llarning sifati yaxshilanishi, ziyoratgohda ovqatlantirish va joylashtirish xizmatlari tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

E'tiborlisi shundaki "Avliyoota" ziyoratgohida erkaklar uchun alohida xotin-qizlar uchun alohida hojatxona, tahoratxonlar va namozxonalar barcha shart-sharoitlari bilan yaratilgan. Bunday sharoitlar turizmga ijora tuzilmalar deyiladi.

Hozirgi vaqtda Jizzax viloyatida diniy ziyoratgoh turizmni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar quyidagilardan iboratligi aniqlandi:

1. Viloyatlar diniy ziyoratgohlardan turizmga foydalanish rejalari ishlab chiqilmagan.

2. Viloyatda ko'plab ziyoratgohlarga olib boradigan yo'llar, mahalliy yo'llar darajasida bo'lib yengil mashinalarning qatnovini qiyinlashtirmoqda. Birinchi navbatda ushbu yo'llar ta'minlanishini talab qilmoqda. Chunki ziyoratgohlarning barchasi tog'lar oldidagi va soylarda joylashgan.

3. Viloyatdagi diniy ziyoratgohlarga qiziquvchilarni, ziyoratchilarni olib borib keluvchi turistik ekskursiya xizmatlari tashkil qilinmagan.

4. Viloyatdaga ko'plab diniy ziyoratgohlarda, muqaddas qadamjolarida ziyoratchilar va dam oluvchilar uchun ovqatlantirish, joylashtirish tahorat olish, namoz o'qish yoki boshqa ibodatlar qilish sharoitlari yaratilmagan.

5. Eng muhimi viloyatdagi ko'plab diniy ziyoratgohlar hatto viloyatning hududlari miqyosida targ'ibot va tashviqot qilinmagan. Shu sabab viloyat aholisi o'zlari yaqin masofalarda joylashgan ziyorat maskanlariga berishadi. Bu holatni tuzatish uchun viloyatning gazetasida xususiy gazetalarda, radio va televideniya doimiy targ'ibot va reklama ishlarini olib borish talaba qilinadi.

6. Viloyatdagi diniy ziyoratgoh resurslaridan turizm maqsadlarida foydalanishga mo'ljallangan turistik marshrutlar ishlab chiqilmagan. Bunday turistik marshrutlar ham reklama o'rnini ham boriladigan ziyoratgohning o'rnini bajaradi.

Jizzax viloyatida diniy–ziyosatgoh maskanlarga turistik marshrutlar diniy-ziyosatgoh manzillarining ziyorat maqsadlariga qarab guruhlangan holda ishlab chiqilishi to'g'ri bo'ladi. Hozirgacha to'plangan ma'lumotlar bo'yicha diniy-ziyosatgoh maskanlarga quyidagi yo'nalishlarni hisobga olib turistik marshrutlar tuzish yoki ishlab chiqish mumkin deb hisolaymiz:

- diniy-ziyosatgoh maskanlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish;
- har xil ruhiy o'zgarishlardan shifo topish uchun turistik marshrutlar ishlab chiqish;
- farzand tilab ziyorat qiladigan turistik maskanlarga turistik marshrutlab ishlab chiqish;
- kasb-korlikka omad so'rab ziyorat qilinadigan turistik ob'ektlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish;

- umumiy holatda avliyolar dahmalariga ziyorat uchun turistik marshrutlar ishlab chiqish.

Jizzax viloyatidagi diniy-ziyoratgoh maskanlariga qayd qilingan turistik marshrutlar ishlab chiqishda marshrutni mavzuli qilish va bu haqda ma'lumotlarni to'liq marshrutga yozish ziyoratchilarga kerakli ma'lumotlarni beradi. Aholi o'rtasidagi so'rov natijalaridan ma'lum bo'ldiki, Jizzax viloyatidagi aholi ham viloyatdagi diniy-ziyoratgoh maskanlar haqida og'izdan-og'izga ko'chib yuruvchi ma'lumotlarni bilishadi xalos. Tumanlarga yashayotgan aholilar hatto qo'shni tumandagi diniy-ziyoratgoh maskanlar haqida eshitishgan lekin bu ziyoratgohlarning muqaddas maqsadlar, sig'inish maqsadlarini yoki bu ziyoratgohlarda abadiy qo'nim topgan aziz avliyolarning kimlar ekanligini bilishmaydi. Shuning uchun viloyatdagi diniy-ziyoratgoh maskanlarga turizm marshrutlarini ishlab chiqqanda har bir ziyoratgoh haqidagi ma'lumotlarni to'liq kiritish maqsadi bo'ladi.

Diniy - ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrut ishlab chiqilganda marshrut axborotnomasida va marshrut sxemasida, texnologik xaritasida va marshrutning reklamasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

1. Marshrutda dastlab ziyoratgoh joylashgan manzilning ma'muriy-geografik jihatdan joylashgan o'rni.
2. Marshrutdagi transport xizmatlari ziyoratgoh joylashgan manzilga maxsus yoki ommaviy transport vositalari bilan yetib borish va yo'l sharoiti.
3. Ziyoratgohning muqaddasligi xususiyatlari.
4. Ziyoratgoh maskanlarda ovqatlanish imkoniyatlarining borligi va qanday darajada ekanligi.
5. Ziyoratgoh joylarda tunash imkoniyatlarining borligi yoki yo'qligi.
6. Ziyoratgoh joylarda ibodat qilish (tahorat olish, namoz o'qish va boshqa) sharoitlarning borligi yoki yo'qligi.
7. Marshrut trassasi: avtomobilda, piyoda, qisman avtomobilda, qisman piyoda.
8. Ziyoratgoh manzili haqida rangli rasmlarning kelitirishining shartligi.

9. Ziyortgohda dam olish sharoitining borligi yoki yo'qligi.

10. Marshrut va marshrutda xizmat ko'rsatuvchi firmalarning adresi, rahbarlari va firmaning telefon raqamlari.

11. Marshrut davomida sog'liqni saqlash yoki birinchi tibbiy yordam ko'rsatish punktlari markazlarining adreslari, telefonlari.

12. Turistik marshrutning bahosi (transport xizmatlari, ovqatlantirish, ekskursiya va boshqa xizmatlar)

Ushbu talablarni o'zida mujassamlashtirgan marshrut turistlarning barcha ehtiyojlarini qondirish talablarini qamrab oladi. Sayohatchilar, ziyoratchilar qo'shimcha savol berishga, surishtirishga majbur qilmaydi. Albatta har bir ekoturistik ziyoratgoh marshrutlarida axborotlarning to'liqligi har doim ijobiy natijalar beradi.

Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishda ekologik marshrutlarni alohida ekologik ob'ektlar bo'yicha ishlab chiqish mumkin va diniy - ziyoratgoh turizm ob'ektlariga ham alohida turistik marshrutlar ishlab chiqish mumkin. Shuningdek ekologik ob'ektlar va diniy - ziyoratgoh ob'ektlariga birgalikda turistik marshrutlarni ishlab chiqish mumkin. Bunday turistik marshrutlar majmualari turistik marshrutlar bo'ladi.

Chunki, Jizzax viloyatidagi diniy-ziyoratgoh va muqaddas joylarning deyarli barchasi so'lim tog' bag'ridagi soylarda buloqlar atrofida joylashgan. Hozirda ziyoratchilar oila a'zolari bilan erta tongdan ziyorat qilib so'ngra kuni bilan bunday joylarda sayr qilishi dam olishmoqda. Viloyatdagi ekologik va diniy turizm marshrutlarining reklamasi avvalo ana shu marshrutlarning o'zi bo'ladi. Lekin ushbu marshrutlardagi ob'ektlar alohida bukletlarda, televideniyada reklama qilinishi ham maqsadli bo'ladi. Umuman olganda, turmarshrutning –turning bozori chaqqon bo'lishi uchun reklamaga alohida e'tibor berib, ular to'g'risida gazeta, jurnal, radio, har xil katta–kichik afishalar va televideniya foydalanilsa viloyatda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish istiqbollari oshadi deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalarini bajarishda hamda ishni shakllantirishda olingan natijalar quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Viloyat ekologik va diniy-ziyoratgoh turizmni rivojlantirish resurslari salohiyatiga boyligi hamda viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turizm muhim ahamiyat kasb etishi, xususan tabiatimizni asrab-avaylash, e'tiqodni mustahkamlash, to'g'ri tarbiyani shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, obodonchilikni kuchaytirishga olib kelishi aniqlandi.

2. Viloyatda betakror va biologik xilma-xil ekoturistik resurslar ro'yxatga olindi. Shuningdek, viloyatdagi ekologik turizm resurslari 3 ta tabiiy landshaft guruhlarini tashkil qiladi. Shundan, 1 –guruhda 4 ta, 2 – guruhda 8 ta va 3 – guruhda 5 ta, jami 17 ta tabiiy landshaft ko'rinishidagi ekologik turizm resurslari bor.

3. Viloyatdagi diniy-ziyoratgoh turizm resurslaridan 36 ta ob'ekt ro'yxatga olindi. Bu ziyoratgohlarning va muqaddas qadamjolarining qisqacha tavsiflari yozildi.

4. Viloyatda ekologik turizmni rivojlantirishda ekoturistik marshrutlar ishlab chiqish usullari ishlab chiqildi va ekologik turizm marshruti tavsiya qilindi.

5. Viloyatda diniy-ziyoratgoh turizmni rivojlantirish yo'llari ko'rsatildi hamda viloyatdagi aziz avliyolar, muqaddas qadamjolarga turistik marshrut ishlab chiqish orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishini shakllantirishda to'plangan ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish ishning xulosalarini ko'rib chiqishga asos bo'ldi. Jizzax viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish o'z samarasini beradi:

- “Zomin” milliy bog'i va “Zomin” tog' o'rmon davlat qo'riqxonasiga ekoturistik marshrut;

- “zomin” tog’-archa o’rmonlari va Baxmal tog’i o’rmonlariga ekoturistik marshrut;
- “Nurota” tog’ tumanlarining o’rmon landshaftlari va “Nurota” davlat qo’riqxonasiga ekoturistik marshrut;
- Aydarko’l va Arnasoy ko’liga ekoturistik marshrutlar;
- Viloyatning “Avliyo ota”, “Sayfin ota”, “G’ubdin ota” , “Jondaxor ota” ziyoratgohlarida diniy - ziyoratgoh marshrut;
- Viloyatning Baxmal tumanida joylashgan “O’smat ota”, “Novqa ota”, “Bog’imozor”, “Xo’ja ko’ndalang”, “Terakli ota”, “Machitli ota” ziyoratgohlariga diniy-ziyoratgoh marshrutlar ishlab chiqish diniy turizmni rivojlantirishga asos bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy –huquqiy hujjatlar

1.1. O'zbekiston respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi, 1999 yil 14 sentyabr.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. // Xalq so'zi, 1995 y. 3 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida”gi Farmoni. // Xalq so'zi, 1999 y. 1 oktyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. // Xalq so'zi, 2006 yil 18 aprel.

1.3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Xalqaro tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari va Qo'mitalari me'yoriy-xuquqiy hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. // Xalq so'zi, 1995 y. 4 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. // Xalq so'zi, 1995 y. 4 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesi va xalqaro turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. // Xalq so'zi, 2002 y. 3 sentyabr.

4. «O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi» // Ekologiya xabarnomasi. – Toshkent, 2007. - № 6.

III. Ilmiy monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar

1. Alieva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: Moliya. 2005. - 339 b.
2. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan rasional foydalanish. -T., 1982.
3. Alimqulov.N.R, Xolmurodov.Sh.A. Sangzor vodiysining landshaft-ekologik sharoitining antropogen omillar ta'sirida o'zgarish // O'zGJ Axboroti. T., 2013, 41-jild, 81-83-b.
4. Alimqulov.N.R, Xolmurodov.Sh.A. Sangzor vodiysining geografik-turistik ob'ektlari va muhofaza qilish muammolari // O'zbekistonda atrof muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari. Samarqand, 2013, 14-15-b.
5. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T., 1996.
6. Baratov P. va boshq. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -T., 2002.
7. Komilova F.Q. Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006
8. G'ulomov P. Inson va tabiat. –T., 2009
9. Nishonov S.A. Jizzax oblasti. -T., 1980.
10. Olimov U., Haydarov H. Jizzax viloyati. -Jizzax, 1992.
11. Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. – Samarqand, Sam ISI — 2006. – 137 b.
12. Soliev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. – Samarqand, SamDU, – 2005. -131 b.
13. Eshtaev A.A., Norchaev A.N., Ro'ziev S.S. O'zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo'llari. – T.: TDIU, 2007. – 38 b.
14. Hayitboev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand. SamISI, 2008. – 47 b.
15. Hakimov Q., G'o'dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. -Jizzax, 2004.

16. Hayitboev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, SamISI, 2009. – 87 b.
17. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T., 2000 - 2007.

Интернет сайтлари

www.ecoross.ru/old/aleks_s.htm

www.google.uz.

www.ziyonet.uz.

www.nature.ru

www.tdpu.tps.uz.

Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan atamalardan

Izohli lug'at

№	O'zbek tili	English
1	Geografik	Geographic
2	Ta'lim	Education
3	Qonun	Law
4	Kadr	Basic
5	Sifat	Quality
6	Malaka	Skill,experience
7	Mahorat	Talent,Cift
8	San'at	Art
9	Ma'suliyat	Responsibility
10	Mutaxasis	Specialist, expert
11	Pedagog	Teacher, educational specialist
12	O'qituvchi	Teacher
13	Faoliyat	Activity
14	Kasb	Profession,trade
15	Tafakkur	Thinking, mentality
16	Litsey	Lyceum
17	Uslub	Metod
18	Olim	Scientist
19	Texnologiya	Technology
20	Tajriba	Experience
21	Yangilik	The news
22	Innovatsiya	Innovation
23	Isloxot	Reform
24	O'quvchi	Pupil
25	Qadriyat	Tradition, customs

26	Fermer	Fermer
27	Axborot	News,information
28	Akademik	Academician
29	Gektar	Hectare
30	Gradus	Gegrle
31	Iliq	Warm
32	Janub	South
33	Artizan qudug'i	Atesion well
34	Chegara	Border
35	Aholi	Inhobi tants
36	Ampilituda	Emplitude
37	Kanal, anhor	Irrigation, lalal
38	Modernizasiya qilish	Modernization
39	Sanoatlashgan	Industrial
40	Ekologik muammo	Ekologik problems
41	Shartli yoqilg'i	Agreed upan flul
42	Eng yosh tarmoq	The youngest
43	Balans	Balance
44	Byudjet	Budget
45	Investetsiyalar	Investment
46	Infrastruktura	Infrastructure
47	Iqtisodiy salohiyat	Economic potential
48	Kadastr	Cadastre
49	Kapital mablag'lar	Capito inaletment
50	Kichik biznes	Small enterprty
51	Kooperativ mulkchilik	Cooperatiree property
52	Markazlashtirish	Centralization
53	Mehnat resurslari	Labour rtsourcee
54	Milliy boylik	National profite
55	Mutaxasis	Specialist
56	Resurslar	Recourse
57	Biznesmen, tadbirkor	Businessman
58	Shirkat	Partnershipp
59	Yalpi milliy mahsulot	Gross national product
60	Ehtiyoj	Neds, wants, ments
61	Jarayon	Process
62	Texnologiya	Technologue
63	Yer	Land
64	Iqlim	Climate
65	Issiq	Hot
66	Sovuq	Cold
67	Harorat	Temperature
68	Rel'ef	Rel'ef

69	Joy	Place
70	Global	Global
71	Sug'ormoq	Irrigate
72	Tog'	Mountain
73	Tuman	Tog
74	Atrof muhit	Enviovmment
75	Agrar	Agrorion
76	Olim	Scientist
77	Qishloq xo'jaligi	Agriculture
78	Sanoat	Industry
79	Zavod fabrika	Place
80	Shahar	City
81	Tabiiy	Natural
82	Viloyat	Region
83	Tarixiy	Historical
84	Huquqiy	Legal, juridical
85	Yo'l	Noad
86	Masofa	Way
87	Temir yo'l	Roilroad railway
88	Kon	Mine
89	Damba to'gon	Dike
90	Ichimlik suvi	Drinking water
91	Suv	Water
92	Neft	Petrolcum
93	Sarmoya	Capital, means
94	Valyuta	Currency
95	Yer kadasri	Lang kadaastre
96	Yer monitoringi	Monitoring of lang
97	Yer rentasi	Cround lond rent
98	Jamg'arma	Fob with ctorage
99	Idora, tashkilot	Institution agency
100	Import	Import
101	Yer fondi	land fond
102	Issiq	hor
103	Ko'l	lake
104	Harorat	temperature
105	Shamol	wind
106	Tuproq	soil
107	Suv resurslari	water recourse
108	Joy	place
109	Global	global
110	Mahalliy	Local
111	Sug'orish	irrigate

112	Tuman	tog
113	Qor	snow
114	Chiroyli	city
115	Turist	tourist
116	Buloq	spring
117	Yomg'ir	rain
118	Ariqcha	brooklet
119	Sovuq	brast
120	Dasht	steppe
121	Gektar	hectare
122	Daraja	gegrle
123	Iliq	warm
124	Janub	south
125	Shimol	North
126	Tog'lar	Mountains
127	Atmosfera	Atmosphere
128	Ekvator	Equator
129	Troposfera	Troposphere
130	Antitsiklon	Antitsiklon.
131	Flora	Flora
132	Fauna	Fauna
133	Tabiiy resurslar	Natural Resources
134	Faoliyat	Activity
135	Kasb	Profession,trade
136	Tafakkur	Thinking, mentality
137	Litsey	Lyceum
138	Uslub	Metod
139	Olim	Scientist
141	Texnologiya	Technology
142	Tajriba	Experience
143	Yangilik	The news
144	Innovatsiya	Innovation
145	Isloxot	Reform
146	O'quvchi	Pupil
147	Neft	Oil
148	Tabiiy gaz	Gas
149	Tabiat zonasi	Natur zone
150	Kristallar	Crystal